

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.143(575.1)

TALIPOV BOBIR ALISHEROVICH

HUDUDLAR IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH
YOLLARI

5A230601- “Davlat moliyasini boshqarish”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

I.f.n., dots. A.S.Nurullaev

Toshkent – 2014

Dissertatsiya ishida iqtisodiy islohotlar sharoitida mahaliy byudjetlar daromad bazasini shakllantirish va mustahkamlashning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan va o'rganilgan. Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish va uning tarkibini amaldagi holati tahlil qilingan. Mahalliy byudjetlardagi subventsiyalar darajasini kamaytirish uchun ularning daromad bazasini oshirish zarurligi asoslangan. Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha umumiy iqtisodiy va moliyaviy tavsifdagi amaliy tavsiyalar tizimi ishlab chiqilgan.

The thesis examined and studied the theoretical basis for the formation and strengthening of revenue base of local budgets in terms of reforming the economy. The analysis of the modern state of the structure of local revenues substantiates the need to increase the revenue base to reduce the level of subventional local budgets. Developed a system of practical recommendations of general economic and financial capacity of the revenue base of local budgets..

Magistrlik dissertatsiya ishi “Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrasida dastlabki
himoyadan o'tgan.

_____ sonli bayonnoma «_____» _____ 2013 yil.

Ilmiy rahbar: _____

F.I.Sh.

imzo

sana

Magistr: _____

F.I.Sh.

imzo

sana

Himoyaga ruxsat etiladi _____

“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrasida mudiri dots. Xudoyqulov S.K.

“_____” iyun 2014 yil.

MUNDARIJA

	KIRISH.....	.3
I-BOB.	MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	9
1.1.	Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.....	9
1.2.	Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari	17
1.3.	Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllanishining tashkiliy-huquqiy asoslari	22
	1-bob bo'yicha umumiy xulosalar.....	30
II-BOB.	MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	32
2.1.	Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili.....	32
2.2.	Mahalliy budjetlar daromad bazalari va ularni boshqarish holati tahlili.....	42
2.3.	Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash siyosatining ulardagi subventsia darajasini qisqartirishga ta'sirining tahlili.....	47
	2-bob bo'yicha xulosalar.....	56
III-BOB.	IQTISODIYOTNI MODERNIZITSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI.....	58
3.1.	Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllantirishning xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari	58
3.2.	Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.....	59
3.3.	Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazasini yanada mustahkamlash yo'llari	66
	3-bob bo'yicha xulosalar.....	82
	XULOSA VA TAKLIFLAR	79
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	82

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida byudjet tizimida iqtisodiy islohotlar natijasida mahalliy byudjetlarda daromad bazalari yildan yilga ortishi kuzatilmoqda. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-extiyojlarni to'laroq, qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarning bajarilishi bilan chambarchas bog'langan holda ijro etishga imkon yaratib beradi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Bu borada, birinchi navbatda, mahalliy xomashyo va materiallar asosida sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni mahalliyashtirish tizimini yanada rivojlantirishga oid ishlarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratish darkor¹". Mahalliy byudjetlar daromadlari asosan mahalliy soliqlar va umumdavlat soliqlaridan ajratmalar hisobiga shakllanadi.

2012-2013 yillarda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Shularga qaramasdan, davlat byudjetining daromadlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

Davlat jami xarajatlarning asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi².

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov hozirgi sharoitda, soliq tizimi va soliqqa tortishga oid muammolarga to'xtalib quyidagi fikrlarini aytib o'tgan edilar, "Biz hanuzgacha eskicha fikrlash qolipidan chiqa olmayapmiz, o'z

¹ Каримов И.А. "2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади". - Т: "Ўзбекистон", 2012. - 36 б.

² Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish – T.: O'zbekiston. 2013. – 64 b.

umrini o'tab bo'lgan, eski va yaroqsiz planli-taqsimot tizimi qoldiqlari, afsuski, butunlay barham topgani yo'q. Keskin raqobat sharoitida soliq imtiyozlari va proteksionistik choralar hisobidan yashash mumkin, degan noto'g'ri qarash miyamizga chuqur o'rnanib qolgan.

Bunday choralar, avvalo, korxonalar manfaatiga zarar etkazib, ularning daromadini kamaytirish bilan birga, davlat byudjetiga sezilarli ravishda ziyon etkazishi haqida o'ylab ham ko'rmaymiz. Eng muhimi, har qanday imtiyoz va preferentsiyaning umri uzoq emasligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

Faqat shunday imtiyoz va preferentsiyalarga tayanib qolgan korxonalar ochiq iqtisodiyot sharoitida xorijiy kompaniyalar bilan nafaqat tashqi, balki ichki bozorda ham raqobatlasha olmaydi³.

Respublika va mahalliy byudjetlari o'rtasidagi munosabatlarni, bog'liqlikni yanada takomillashtirish, shubhasiz regionlarni iktisodiy rivojlantirish ular o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikka mumkin qadar barxam berishdan iborat. Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarga tushumlarning yangi manbalarini qidirib topish, soliq undirishning progressiv tizimini joriy qilish va mavjud soliq tushumlari asosini takomillashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan bo'lsada bu ishlarning haqiqiy xolati hali to'liq o'rganilmagan. Shu sababli mahalliy byudjet faoliyatini hamda mahalliy byudjet daromadlari bazasini o'rganib chiqish va tahlil qilish zarurdir. Yuqoridagi mazkur holatlar mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning oqilona yo'llari topishni taqoza etadi, bu tanlangan magistrlik dissertatsiya ish mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilanishi. Magistrlik dissertatsiya ishining ob'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari ishning ob'ekti hisoblanadi.

³ 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent: Halq so'zi gazetasi. 2014 yil

Magistrlik dissertatsiya ishining predmeti. Mamlakatimiz mahalliy byudjetlar daromad bazalarini shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ishning maqsadi O'zbekiston Respublikasida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish va ularni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar qo'yildi:

- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahalliy byudjetlarning roli va ularning iqtisodiy ahamiyatini o'rganish;
- mahalliy byudjet daromad bazalari shakllanishi va bugungi kundagi zaruriyatini ko'rib chiqish;
- mahalliy byudjet daromadlarida maxalliy solikli daromadlarning roli hamda ularni nazariy – huquqiy asoslarini o'rganish;
- mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari bazasini shakllantirish amaliyotining tahlilini amalga oshirish;
- mahalliy byudjetlarning tartibga soluvchi daromadlari va ularning tahlilini tadqiq etish;
- hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazalari mustahkamlash bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu magistrlik dissertatsiya ishida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini shakllanishining amaldagi holati kompleks tahlil qilindi. Ushbu tahlillar jarayonida mahalliy byudjetlarga biriktirilgan mahalliy solifqlar va yig'implarning samaradorligi baholandi va ularni ko'paytirish imkoniyatlari bo'yicha fikr mulohazalar berildi. Shuningdek, hudud iqtisodiyotini rivojlantirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosi farazi sifatida ta'kidlash joizki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar istiqbolida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash orqali ularning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilishini ta'minlashi mumkin.

Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlarning tahlili. Mahalliy soliqlar va ularni unidirish jarayonini takomillashtirish masalalarini o'rganish ko'pgina xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlari, risolalari va maqolalarida ham o'z aksini topgan. Xususan ular qatoriga A.Smit, D.Rikardo, B.Jorj, A.Sokolov, A. Leffer, A.Trivuslarni, zamonaviy iqtisodchi olimlar A.A. Aleksandrov, A.G. Porshnev, B.A. Ramzin, D.N.Tixonov, M. Kempbell, A.V.Lobanov, V.F. Stolyarov, D.G. Chernik va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuningdek o'rganilayotgan masalaning ayrim jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari E.F. Gadoev, V.Yu. Galkin, Sh.K. Gataulin, B. Isroilov, A. Jo'raev, J.R. Zaynalov, I.Zavalishina, B.E.Tashmuradova, I.A.Karimov, G.K. Saidova, R.K. Karimov, T.S. Malikov, M. Mirzaaxmedov, M. Maxmudov, O.O. Olimjonov, N.X. Haydarov, M.Sh. Sharifxujayev, K.A. Yax'yoev va boshqalar ilmiy asarlarida ham o'z aksini topgan.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Dissertatsiya ishini yozish jarayonida guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, iqtisodiy tahlilning vertika va gorizonta uslublaridan va statistik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiya ishning ma'lumotlaridan, tahlil natijalaridan, xulosa va tavsiyalaridan mavzuga oid tadqiqot ishlarini yanada davom ettirishda, "Moliya" yo'nalishi bo'yicha kadrlarni tayyorlashda, o'quv adabiyotlarini tayyorlashda hamda dars mashg'ulotlarini olib borishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu dissertatsiya ishining ilmiy jihatdan yangiligi islohotlarning hozirgi shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kompleks tahlil qilinganligi natijasida mavjud

muammolar hamda ushbu muammolarni hal qilish yo'nalishlarining ishlab chiqilganligi hamda hududlar iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Magistrlik dissertatsiya ishining ilmiy jihatdan yangiligi quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda mahalliy byudjetlarning hududlar iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlash sohasidagi yangi vazifalari aniqlandi;

- mahalliy byudjetlarning daromad bazasining amaldagi holatini tahlil qilish natijasida birlashtirilgan daromadlarni ko'paytirish zarurligi isbotlandi;

- mahalliy byudjetlarga undiriladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha soliqlarning undiriluvchanligini oshirishga qaratilgan taklif va amaliy tavsiyalar berildi;

- mahalliy byudjetlar daromad bazasini yanada oshirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Magistrlik dissertatsiya ishining nazariy va metodologik asosi.

Respublikamiz va xorijiy iqtisodchilar tomonidan davlat byudjeti xarajatlari va uni boshqarish tizimiga bag'ishlangan ilmiy- amaliy ishlari ushbu dissertatsiya ishining nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Shu bilan birgalikda ilmiy ishni yozish jarayonida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan Qonunlardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlaridan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining me'yoriy hujjatlaridan, iqtisodchi-olimlar asarlaridan va turli davriy nashrlarda e'lon qilingan materiallardan keng foydalanildi.

Dissertatsiya ishi tarkibining qisqacha tavsifi. Magistrlik dissertatsiya **ishning tarkibi** kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida mahalliy byudjetlarning daromad bazalarini shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari tadqiq qilingan.

Disertatsiya ishining ikkinchi bobida maalliy byudjetlar daromad bazasini shakllantirishning amaldagi holati Respublika va Asaka tumani misolidagi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobida mahalliy byudjetlar daromad bazasining yanada mustahkamlashga yo'naltirilgan talif va amaliy tavsiyalar asosangan.

I BOB. MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1.Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mahalliy budjetlarning ahamiyati.

Mahalliy moliya - davlat moliya tizimining muhim qismi hisoblanadi. Davlat budjeti respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahalliy budjetlarga e'tibor yanada kuchaymoqda.

Mahalliy budjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatimizning budjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi shubhasizdir, bu borada ularni yanada qo'llab-quvvatlashga harakat qilinmoqda. Bu budjetlarning rejasini shakllantirish va mablag'larini harajat qilish miqdori viloyat, tuman, shahar hokimiyat organlari tomonidan tasdiqlanadi. Mahalliy budjetlar orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlab boriladi. Mahalliy budjetlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilishining asosiy qismi sifatida o'zida 14 ta mustaqil budjetni mujassamlashtiradi.

O'zbekistonda mahalliy budjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida respublika va uning hududlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda boshqaruv tizimi tarkibini o'zgartirishni va bu jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni talab etadi. Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishi ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta, mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi- mahalliy budjetlar hisoblanadi. Davlat budjeti tarkibida Respublikasi budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar, Toshkent shahri budjetlari, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi. O'zbekiston Respublikasi budjeti bir butundir, ya'ni

budjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat budjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, shahar va tumanlari budjetlarining uzviy birligini bildiradi

Shu o'rinda Prezidentimizning quyidagi fikrlariga e'tibor qaratsak "Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni tubdan qayta ko'rib chiqish va qishloq joylarda ularni aholi, ayniqsa, yoshlar bandligining, qishloqda hayot darajasini oshirishning muhim omili sifatida jadal rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish zarur"⁴. Hududiy iqtisodiyot va mahalliy budjetlar moliyaviy imkoniyatlari masalalarini tadqiq etish mazkur ikki mustaqil yo'nalishning jihatlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Bugungi kunda hududiy moliya ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirish quroliga aylanib bormoqda.

Hududiy moliya:

- mahalliy ahamiyatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishga;

- aholi bandligining oshishini ta'minlashga;


- hududiy xo'jalik kompleksining uzoq muddatli taraqqiyotini ta'minlovchi soha va tarmoqlarga investitsiyalarni jalb qilishga;

- hududdagi aholining zarur ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Mahalliy budjetlar "Budjet tizimi to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat budjeti, viloyatlar budjetlari, viloyatlar budjetlariga kiruvchi quyi (shahar, tuman) budjetlarni o'z ichiga oladi. Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, budjet jarayoni va budjet huquqi qonun bilan belgilangan.

Mahalliy maxsus fondlar – mahalliy boshqaruv organlari tomonidan tuziladi va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qo'shimcha pul mablag'lari bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

⁴ I.A.Karimov. "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Toshkent. "O'zbekiston" – 2009 yil. – B. 50.



1.1-rasm.Mahalliy moliyani tarkibiy tuzilishi.⁵

Ularga:


- mahalliy hukumat organlarining maxsus mablag'lar bo'yicha hisob raqami;
- "Mahalla fondi" kabilar kiradi.

Xorijiy davlatlarda mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoridagi maxsus pul fondlari soni va mahalliy moliya tizimidagi salmog'i ancha yuqori bo'lib, ular avtonom mustaqillikka egaligi, markaziy hukumat tomonidan qattiq nazoratga tortilmasligi, doimiy yoki vaqtinchalik, ayrim ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarni ko'zlab tuzilishi bilan xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimida muhim tarkibiy qismni mahalliy budjetlar tashkil etadi. Mahalliy budjetlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat mablag'larini unumli taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishda muhim ahamiyatga kasb etadi.

Bu - turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat.

⁵ Matn asosida talaba tomonidan aks ettirilgan.



1.2-rasm.O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti tuzilmasi⁶

⁶ Срожиддинова З.Х.Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик . – Тошкент: инфоСОМ.ЎЗ МЧЖ нашриёти, 2010. – 79 б.

Hududiy iqtisodiyot muammosini ilmiy talqin etishda ikki xil yondoshuv mavjud:

1. Mazkur muammoga hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlar mavjudligi bois davlatning qoloq hududlarni qo'llab-quvvatlashi zarurligini ta'kidlash nuqtai-nazaridan yondoshish.

2. Mazkur muammoga har qaysi hudud o'zi egalik qilayotgan iqtisodiy imkoniyatlardan yanada ko'proq va hatto o'zi foydalanishi zarurligini, har qaysi hudud o'z ijtimoiy muammolarini o'zi hal qilishini yoqlash orqali yondoshish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining bugungi kundagi o'ta mas'uliyatli holati hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangidan-yangi muammolarini ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Hozirgi kunning global vazifalarini hal etishning samarali usullarini qidirib topishga intilishgina emas, balki iqtisodchi olimlar diqqat e'tiborini jahon iqtisodiy xazinasini durdonalaridan iborat butun «pragmatik» potentsialdan, jumladan, jahon miqyosida iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish konsepsiyasining uslubiy, metodologik, nazariy ahamiyatini o'rganishga qaratish ham muhim hayotiy zaruriyatdir.

Bozor iqtisodiyotining transformatsiyasi sharoitida uning hududiy elementini mavjudligi hududiy jihatlarni hisobga olgan holda makroiqtisodiy siyosatning kutilayotgan va haqiqatdagi natijalarini qiyoslashga majbur etadi⁷. Makroiqtisodiy tahminlashtirishning umumiy qonuniyatlari nuqtai-nazaridan mutloq to'g'ri hisoblangan holatlar hududiy tizimda o'ziga xos maxsus ahamiyat kasb etishi va aniq olingan hudud manfaatlari nuqtai-nazaridan boshqacharoq talqin etilishi mumkin. Mamlakat miqyosidagi umumiy holat va hududiy iqtisodiyotni qiyoslashda shuni alohida ta'kidlash mantiqiy o'rinli bo'ladiki, bunda hududda umuman jamiyat turmush darajasi barqarorligi ta'minlanishi va shu bilan bir vaqtda hududiy tizim barqarorligi ham e'tiborga olinishi kerak. Amaliyotda mazkur dolzarb masalani respublika markaziy hukumati hal qiladi.

⁷ Vaxobov A.V. Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida ko'p ukladlilik. T.: Sharq, 2003., 66-b.

Markaz uchun hudud makroiqtisodiy tizim va makroiqtisodiy tartibga solish ob'ekti sifatida maydonga chiqadi.

Hududlar taraqqiyotining xususiyatlari ham sifat ko'rsatkichlari – rivojlantirishning ustivor yo'nalishlari, xo'jalikning bazaviy tarmoqlari, ixtisoslashuv va h.k., ham miqdoriy ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Zero, ayrim asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha, masalan, yo'l ta'minoti bo'yicha, suv ta'minoti va hududiy rivojlanishning boshqa sharoitlari bo'yicha, aholining ijtimoiy-infratuzilmaviy ta'minoti va ular tomonidan ijtimoiy xizmatlar iste'moli bo'yicha turli hududlar «foizlarda» emas, balki hatto «martalarda» bir-biridan farq qilmoqda.

Hududlarning moliyaviy-budjet rivojlanishi istiqbollari belgilanayotganda imkon doirasida shunga e'tiborni qaratish kerakki, iqtisodiy va ijtimoiy muammolar ma'muriy usullardan holi, yuqori organlarning aralashuvisiz, asosan, hududda yaratilgan va jalb qilingan mablag'lar hisobidan hal etilishi kerak.

Hududda barcha sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlar quyidagi tamoyillar asosida tashkil etiladi:

- hudud mahalliy budjeti daromadlar qismining barqarorligini iqtisodiy potensialni samarali rivojlantirish asosida ta'minlash;
- mahalliy budjetlar uchun daromadlar manbalari va ajratmalar stavkalari tizimini, shuningdek ularning amalga oshiradigan funksiyalariga mos ravishda xarajatlar turlarini qat'iy belgilash;
- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida korxonalar va tashkilotlarning, hududda joylashgan davlat korxonalirining, shuningdek aholining va chet el investorlarining mablag'larini jalb qilish va muvofiqlashtirilgan holatda ishlatish.

Xududlar moliyaviy resurslari tarkibida mahalliy hokimiyat organlarining to'la tasarrufida bo'lgan mahalliy budjetlar mablag'lari asosiy o'rinni egallaydi. Mahalliy budjetlarning asosiy daromadlari soliqlar va yig'implardan tashkil topadi. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini tashkil etish Soliq Kodeksi

asosida amalga oshiriladi. Unga muvofiq mahalliy budjetlarga to'lanadigan soliqlar va yig'imlar, ularning to'lovchilari va imtiyozlar tarkibi berilgan.

Mahalliy budjetlarning solikli daromadlari tarkibida barqaror baza bo'lib mol-mulk solig'i xizmat qiladi, chunki u bo'yicha tushumlar xo'jalik faoliyatining natijalariga sezilarli bog'liq bo'lmaydi hamda yuridik va jismoniy shaxslar mulkning bahosi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida hududiy iqtisodiyot muammolari va mahalliy budjetlarni boshqarish amaliyoti hozirgi holatining tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

- O'zbekiston Respublikasida mahalliy moliyalarning amal qilishi va rivojlanishi hududiy iqtisodiy siyosat konseptsiyasiga asoslanadi;

- muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish uchun hududiy moliyaviy siyosat to'lovga qobil talabni va uning hududiy taqsimlanishini prognozlashtirishni, hududiy moliya bozorlarini o'rganishni, hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini baholashni, hududlarning o'z moliyaviy potentsiali rivojlanishini rag'batlantirishni o'z ichiga olishi kerak;

- O'zbekiston Respublikasida hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi hamda tabiiy-jug'rofiy joylashuvidagi xususiyatlaridan kelib chiquvchi tafovutlar davlatning mahalliy budjetlarni boshqarish siyosatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadiki, buning natijasida mahalliy budjet bo'g'inlari o'rtasida budjet majburiyatlarining taqsimoti mezonlari davlat tomonidan tartibga solinadi. Mazkur tafovutlar turli hududlar budjet majburiyatlarining bir muncha yuqori va ayrimlarida esa, hatto, moliyaviy imkoniyatlarning taqsimotidagi keskin yetishmovchilikni keltirib chiqaradiki, ushbu holatlar davlatning mahalliy budjetlarni boshqarish siyosatida dolzarb ahamiyat kasb etadi;

- mahalliy budjetlarning budjet tizimida tutgan o'rni va ahamiyati amaldagi budjet qonunchiligi doirasida ular faoliyatini ta'minlashning huquqiy-me'yoriy va tashkiliy-iqtisodiy asoslari orqali yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbekiston

Respublikasining «Budjet Kodeksi»gi qonunida⁸ ushbu asoslar timsolida mahalliy budjetlar imkoniyatlari shakllanishi va ularni samarali boshqarish yo'nalishlari uchun zamin yaratilgan. Biroq, mamlakatimizda budjetlararo munosabatlarning yangi modeli sharoitidagi hamda budjet-soliq siyosati yaxlitligini ta'minlashdagi davlat tadbirlari va ularning real ijrosi xali bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini tasdiqlamoqda.

Umuman, hududiy iqtisodiyot muammosining mahalliy budjetlarni shakllantirish va boshqarish amaliyoti uchun bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning imkoniyatlarini muttasil yaxshilab borish zarurligini belgilovchi qator jihatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- davlatning u yoki bu hududlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti muammolarini hal etish yuzasidan siyosatini mukammallashtirish hududlar taraqqiyotidagi tafovutlarni samaradorligini rag'batlantirish orqali manfaatdorligini saqlagan holda bartaraf etishga asoslanishi lozim;

- yagona yondoshuv davlatning yaxlit siyosatidan kelib chiqib, amaldagi qonunchilik asosida barcha hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni qamrab olishi va imkon qadar ularni hal etishni ta'minlashi kerak;

- tabiiy-iqtisodiy shart-sharoitlari bir xil bo'lgan hududlarda samaradorlikning rag'batlantirilishi orqali tabaqalangan holda yondoshuv zarur;

- davlat siyosatining strategik va taktik vazifalaridan kelib chiqib, davlat ko'magiga muxtoj hududlar uchun maxsus imtiyozli rejim saqlanib qolishi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning hal etilishi darajasiga qarabgina o'zgartirilishi mumkin;

- mintaqaviy rivojlanish dasturlari va hududlar taraqqiyotining istiqbollari muvofiqlashtirilishi hamda mazkur davrda davlat siyosatining keskin o'zgarishlari chuqur tahlil etilishi va keng xalq ommasiga yetkazilishi lozim.

⁸ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013 yil. 20-bob

1.2.Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan rivojlanishi bevosita davlat tomonidan bozor iqtisodiyotini boshqarish yo'nalishlariga chambarchas bog'liqdir. Bu jarayonda davlat boshqaruvining muvaffaqiyatli kechishi tanlangan boshqaruv usullari, vositalari, iqtisodiyotning ichki imkoniyatlari va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida iqtisodiyotda yangi moliyaviy munosabatlarni shakllantirishni hamda davlat tomonidan iqtisodiyotni boshqarishning iqtisodiy, ma'muriy, tashkiliy va ijtimoiy-psixologik usullarini takomillashtirishni taqozo etadi. Iqtisodiy usullarning asosini esa byudjet-soliq siyosati tashkil etadi.


Shuni alohida ta'kidlash joizki, soliqlar iqtisodiyotni tartiblashning eng muhim moliyaviy vositasi bo'lib, ularning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni, tarkibiy tuzilishi, bevosita va bilvosita soliqqa tortish nisbati, soliqqa tortish tamoyillari, soliq imtiyozlari tarkibi va ulardan foydalanish darajasi hamda jismoniy va yuridik shaxslar zimmasidagi soliq yuki darajasining turlicha bo'lishi davlatning iqtisodiy tuzumi, iqtisodiy-siyosiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish va mulkchilik munosabatlari holatining turlicha bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Bizga ma'lumki, moddiy ma'noda byudjet - tegishli darajadagi davlat va mahalliy hokimiyat idoralari faoliyatini ta'minlovchi, ular oldiga qo'yilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni bajarish imkonini beruvchi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondidan iboratdir⁹. Huquqiy kategoriya sifatida byujet - tegishli xudud doirasida markazlashtirilgan pul mablag'larini shakllantirish, taqsimlash, foydalanishga qaratilgan va tegishli davlat yoki mahalliy hokimiyat idorasi tomonidan tasdiqlangan asosiy moliyaviy reja, yuridik me'yorlardan iboratdir.

⁹ Jo'raev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. -T.: "Fan". 2004. 25-bet

Umumdavlat pul mablag'larining byudjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlashning asosini, mahalliy byudjetlar mustaqilligi, ularning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobiga shakllanishi tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromatlardan shakllanadi (1-rasmga qarang).

O'z daromadlari yoki birlashtirilgan daromadlar, to'liq yoki qat'iy belgilangan ulushda bevosita mahalliy byudjetga tushadigan mablag'lardan iborat. O'z daromadlarining asosini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi.




1.3-rasm. Mahalliy byudjet daromadlarining tarkibiy tuzilishi¹⁰

O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun tegishli daromadlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi 2-rasmga ko'rsatilgan.

¹⁰ Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 45-bet

Shunga muvofiq mahalliy byudjetlar daromadlari o'z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig'inar) va yuqori byudjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar) hisobidan shakllanadi. Mahalliy byudjetlarning eng birinchi daromad manbai bo'lib mahalliy soliqlar va yig'inar xizmat qiladi. Bu daromad turlari qonunchilikka asosan mahalliy byudjetlarga to'liq biriktirilgan daromad manbai hisoblanadi.



1.4-rasm. Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi¹¹

Mahalliy soliqlar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar mahalliy byudjetga biriktirilgan xarajatlarini moliyalashda etarli moliyaviy manba bo'la olmaydi. Byudjet parametrlarini belgilash vaqtida umumdavlat soliqlaridan ajratmalar belgilanadi. Bu jarayon har yili byudjet parametrlarini tasdiqlash paytida ishlab chiqiladi va Prezident qaroriga muvofiq belgilanadi va tasdiqlanadi¹². Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar ulushi har yili mahalliy byudjetlarning o'z daromadlarining tushumi hamda ular tomonidan amalga oshiriladigan xarajatlarning miqdoriga qarab o'zgartirilib boriladi. Umumdavlat soliqlarining muhim xususiyati shundaki, respublika byudjetiga tushadigan soliqlardan mahalliy byudjetlarni boshqarib

¹¹ Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 47-bet

¹² Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. -Т.: Адлия. 2002.. 41-bet

borish uchun ajratma sifatida tushishi mumkin. Agar kelgusi yili mahalliy byudjetlarning o'z daromad manbalari (soliklari) ko'payib qolsa, umumdavlat soliqlaridan ajratma berishning hojati qolmaydi.

Umumdavlat va mahalliy soliqlar yagona mohiyatga ega bo'lib, byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan to'lovdir. Shu bilan birga, umumdavlat soliqlarining ayrim turlari ham mahalliy byudjetlarni to'ldirish manbai sifatida mahalliy byudjetlar ixtiyorida qoldirilishi mumkin¹³.

O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" ning 7-moddasida byudjet tizimining asosiy printsiplari belgilangan bo'lib, unga muvofiq byudjetlarni shakllantirishda byudjet tizimi byudjetlarining balansliligi va o'zaro bog'liqligi ni ta'minlash shart¹⁴. Respublika byudjetidan subventsiyalar va dotatsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlariga tasdiqlangan Davlat byudjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan byudjet subventsiyalari va dotatsiyalari tumanlar va shaharlar byudjetlariga tegishli tasdiqlangan byudjetlar doirasida ajratiladi.

Mahalliy byudjetlarning bu daromad turining o'ziga xos tomonlari mavjud. Yuqori byudjetlardan ajratiladigan subventsiya va dotatsiyalar boshqa daromad turlaridan farq qilib, bu daromad turlari yil boshida tasdiqlangan reja miqdorida olinadi, ya'ni bu daromad turlariga yil davomida o'zgartirishlar kiritilmaydi.

Dotatsiya uslublari mahalliy byudjetlarning respublika byudjetiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularning hududlardagi boqimandalikni kuchaytiradi. Mahalliy soliqlarlarning byudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi. Respublikamiz iqtisodiyotida davom etayotgan iqtisodiy islohatlar davrida soliqlarni iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi muhim vosita sifatida ularni doimiy isloh qilib borishni talab qiladi. Hozirgi kunda aholi daromadlarining salmoqli hissasi xususiy sektorda

¹³ Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 126-bet

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013 yil. 7-modda

shakllanmoqda. Davlat tomonidan bu daromadlarni boshqarish imkoniyatlari cheklangan, bu daromadlarni ma'muriy tarzda davlat xarajatlariga yo'naltirish bozor iqtisodiyoti printsiplariga zid. Faqatgina soliqlar orqali aholi daromadlarini byudjet daromadlariga jalb qilish mumkin¹⁵.

Demak, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlarning daromadlari quyidagilar¹⁶:

- mahalliy soliqlar, yig'imlar va bojlar, qonunda ko'zda tutilgan majburiy to'lovlar va soliqsiz tushumlarni mahalliy byudjetga yo'naltirish;

- qonun xujjatlari bilan mustaxkamlangan umumdavlat soliqlari, yig'imlari va bojlar, bulardan tashqari umumdavlat tushumlari va majburiyatlarini mahalliy byudjetlarga yo'naltirish;

- davlat pul mablag'lari, mulklari bo'yicha qonunlar asosida huquqlarni mahalliy byudjetlarga o'tishi;

- yuqori byudjetlardan beriladigan dotatsiyalari, subventsiyalari va ssudalari;

- qaytarib bermaslik sharti bilan xorijiy davlatlardan tushgan pul mablag'lari va qonunlarda ta'qiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllanadi.

Mahalliy byudjet daromadlari mahalliy va umumdavlat soliqlari hisobiga shakllanadi. Umumdavlat soliqlarining mahalliy byudjetlarga ajratiladigan qismi har yili qabul qilinadigan qonun va me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Mahalliy soliqlar va soliqsiz daromadlar mahalliy byudjet xarajatlarini qoplash uchun etarli emas, mahalliy byudjet daromadlarining asosiy qismini boshqariladigan daromadlar hisobiga ta'minlanadi. Bu soliqlar bo'yicha ajratiladigan me'yorlar soliqlar va hududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan bo'ladi va har yili hukumat qarori asosida qayta ko'rib chiqiladi. O'zbekistonda bu me'yorlarning yildan-yilga oshib borishini kuzatishimiz mumkin. Buni mahalliy byudjet xarajatlarini shu hududdan tushadigan soliqlar hisobiga qoplash va yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga transfertlar hajmini kamaytirish zaruriyati bilan izohlashimiz mumkin. Me'yorlarni aniqlashda umumdavlat va mahalliy

¹⁵ Завалишина И. Солиқлар: назария ва амалиёт. -Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси". 2005. 19-бет..

¹⁶ Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. -Т.: Адлия. 2002. 44-б.

soliq tushumlarining kutilayotgan rejasi, mahalliy byudjet xarajatlarining kutilayotgan minimumi hisobga olinadi. Ba'zi viloyatlarda bu me'yorlar 100 foiz qilib belgilanadi, bunday soliqlar ko'p tushadigan viloyatlarda mazkur me'yorlar minimum darajada belgilanadi¹⁷. Chunki, soliq bazasining yuqoriligi me'yorlarni past belgilashga sabab bo'ladi. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishni oshirish, ya'ni ortiqcha undirilgan soliqlarning mahalliy byudjetlarga tushadigan qismini oshirishni yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlarini mustahkamlash hozirgi byudjet islohatlarining asosiy yo'nalishi hisoblanmoqda. Bu borada mulkni, erni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish asosiy rol o'ynaydi. Keyingi samarali manba bo'lib, jismoniy shaxslar daromad soliqlarini uzoq muddatga mahalliy byudjetlarga birlashtirib qo'yish hisoblanadi.


1.3. Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllanishining tashkiliy-huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasida soliqlar byudjetga tushishiga ko'ra umumdavlat soliqlari va majburiy to'lovlari hamda mahalliy soliqlar va majburiy to'lovlarga ajratiladi. Soliqlarni bunday tartibda guruhlash davlat hokimiyati organlarining markaziy va mahalliyga bo'linishi hamda davlat byudjetining respublika va mahalliy byudjetlarga ajratilishi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, respublika byudjetga tushishi belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni umumdavlat, mahalliy byudjetlarga tushishi belgilangan soliqlar va majburiy to'lovlarni esa mahalliyga ajratish mezonini belgilangan (1.5-rasmga qarang):

Umumdavlat soliqlari asosan bu respublika byudjetiga kelib tushadigan soliqlar bo'lib, ular asosan umumdavlat miqyosidagi vazifalarni bajarishning moliyaviy resursi sifatida xizmat qiladi. Biroq, bu soliqlarni barchasi ham

¹⁷ Vahobov A. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi. //O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisod-moliya. 2005. 51-bet

respublika byudjetida qoldirilmaydi, ya'ni ularni ayrimlaridan muayyan qismi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va holatidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyatlarni ixtiyoriga qoldiriladi.



1.5-rasm.Soliqlarni byudjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi ¹⁸

Mahalliy soliqlar va yig'imlar esa soliq tizimini muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular asosan mahalliy hokimiyatlarni ixtiyoriga qoldiriladigan, mahalliy hokimiyatlarni vakolatiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun moliyaviy resurslar bo'lib xizmat qiladigan majburiy to'lovlar va yig'imlar yig'indisidir. O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 23-moddasida aks ettirilgan bo'lib, ularga quyidagilar kiradi (1.5-rasm)¹⁹:

- mol-mulk solig'i;

¹⁸ Jo'raev A., Safarov G'. Soliq nazariyasi. //O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya". 2005. 17-bet

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Adolat. 2008.

- yer solig’i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig’i;
- jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg’isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko’rsatish huquqi uchun yig’im.
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo’yicha qat’iy belgilangan soliq.

Mahalliy soliqlar va yig’imlar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalarga qarab belgilanib, ularga doimiy va to’liq biriktirib berilgan. Mahalliy hukumatlar asosan ijtimoiy masalalarni, ya’ni maktab, sog’liqni saqlash, madaniyat, maorif, shaharlar va qishloqlar obodonchiligi kabi vazifalarni bajaradi. Qariyb aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining 100 foizga yaqini mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladi. Qayd etish joizki, mahalliy soliqlar va yig’imlar mahalliy byudjetlarni talab etiladigan moliyaviy resurslarini asosan 30-40 foizga yaqinini qoplaydi. Keyingi vaqtlarda mahalliy byudjetlar daromad va xarajatlar salmog’ini 50-60 foizga etkazish kabi hukumat qarorlari mavjudki, bu ayni jamiyat va davlat qurilishini erkinlashtirish kabi vazifaga monanddir²⁰.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqqa tortish tizimi hamda soliq siyosatining samarali ishlashi iqtisodiy siyosatning nechog’lik mukammal yuritilishiga bevosita bog’liq bo’lib, iqtisodiyotning real sektorlarini rivojlantirishga to’rtki bo’lib xizmat qilishi mumkin. Aytish joizki, bugungi kunda bu borada qator chora -tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tadbirlarning tub negizini esa qo’yidagilar tashkil etdi:

- soliqqa tortishni tashkil etishda soliqlarning fiskallik funksiyasiga asosiy e’tibor qaratish;
- soliqqa tortish tizimini imkon darajasida soddalashtirish;
- resurs soliqlarini byudjetdagi ahamiyatini oshirib borish;

²⁰ Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш //Дарслик. –Т.: “Шарк”. 2009 й.- 89 б.

- ishlab chiqarishni aynan soliqlar vositasi orqali rag'batlantirish;
- Davlat byudjetida egri soliqlar ulushini ko'tarish hamda ular vositasida mamlakatda iste'mol darajasini boshqarish siyosatini amalga oshirish;
- byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar miqdorini imkon qadar oshirish;
- iqtisodiyotda proteksionizm siyosatini amalga oshirishda soliqlar dastagidan unumli foydalanishdir. Soliqqa tortish tizimini yaratish borasidagi dastlabki qadam soliqlarning umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishi bilan bog'liqdir.

Soliqlar va yig'implardan tashqari har yili mahalliy byudjetlarga bir necha turdagi soliqlar va yig'implar maqsadli tarzda me'yoriy xujjatlarga muvofiq birlashtirib berilishi mumkin. Misol uchun 2005 yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, jismoniy shaxslar daromadiga qat'iy belgilangan soliq, respublikada ishlab chiqarilgan alkogol maxsulotlar uchun aktsiz soliqlari belgilangan me'yorlar darajasida mahalliy byudjetlarga yo'naltirildi.

Mahalliy soliqlar va yig'implardan yer solig'i mahalliy byudjetning daromadlari tarkibida muhim ahamiyat kasb etadi. Er solig'i tuproq unumdorligini oshirish, erdan samarali foydalanishga erishish, uni jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'zlashtirishini rag'batlantirish hamda undan foydalanuvchilarning iqtisodiy ahvolini tenglashtirishni nazarda tutib, ular tomonidan byudjetga to'lanadigan majburiy demokratik to'lov turidir. O'zbekistonda yer solig'ining iqtisodiy chegarasi bu soliq uchun har bir zona bo'yicha stavkalarni belgilanishi hisoblanib, soliqning belgilangan stavkalardan ortiq yoki kam hisoblanishi va undirilishi noqonuniy hisoblanadi. Er solig'ini hisoblash va undirishning huquqiy asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hisoblanadi. Yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar yer solig'i yoki yer uchun ijara xaqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, maxalliy davlat xokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara xaqi yer solig'iga

tenglashtiriladi. Er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni xisoblab chiqarish, soliq xisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida foydalaniladigan yer uchastkalari uchun yer solig'i to'laydilar.

Mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, xar bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Mulk xuquqi, egalik qilish xuquqi, foydalanish xuquqi yoki ijara xuquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish ob'ektidir.

Yagona yer solig'i to'lovchilar uchun yer solig'i ob'ektlari ularga egalik qilish va foydalanish uchun berilgan yerlarning normativ qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Erning normativ qiymati Davlat yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr qo'mitasi tomonidan aniqlanib, har bir soliq to'lovchiga moliya yilining 1 apreliga qadar etkaziladi. Bizningcha yer solig'ini normativ va haqiqiy qiymat asosida soliqqa tortilishi adolatli hisoblanadi. Bunda esa yerning normativ qiymatini vakolatli organ tomonidan hududlar bo'yicha belgilab berilishi lozim. Erning haqiqiy qiymati sifatida esa ko'chmas mulk birjalari orqali yerni sotib olingan qiymati olinib, bu qiymatlar jismoniy shaxslar uchun ham, yuridik shaxslar uchun ham yer solig'i ob'ekti hisoblanishi hamda qonunchilik bilan belgilangan stavkalar bo'yicha undirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa bizning nazarimizda yerdan soliq undirishni dunyo

amaliyotiga o'tishini ta'minlab, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni ancha soddalashtiradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun yerning belgilangan normativ qiymatiga nisbatan yer solig'i hisoblab chiqiladi. Bu tartibda soliqqa tortishning amal qilishi soliq to'lovchilar uchun ham, davlat soliq xizmati organlari uchun ham soliq ob'ekti va miqdorini hisoblashda birmuncha noqulaylik vaziyatlarini keltirib chiqarmoqda. Er solig'i bo'yicha hisob-kitoblar uchun axborot manbai bu soliq hisobi ma'lumotlari hisoblansada, bugungi kunda yer solig'ini hisoblash va undirish amaliyotida yer solig'i hisobi bo'yicha registrlar ishlab chiqilmagan. Buning natijasida esa soliq bo'yicha hisobotlarni tuzishda qo'shimcha hisob-kitoblarni amalga oshirish talab etilmoqta.

Mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar orasida mol-mulk solig'i ham o'ziga xos o'ringa egadir. Bu soliq xususiyatlari haqida gap ketganda avvalo mol-mulk tushunchasi, uning turlari, ob'ekti va sub'ektlari tarkibini tadqiq etish lozimdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra mol-mulk fuqarolik huquqlari ob'ekti sifatida ko'chmas va ko'char mulkka bo'linib, ko'chmas mulk yer uchastkalari va yer osti boyliklari, ko'p yillik daraxtlar, shuningdek, binolar va inshootlardan iboratdir. Bu guruhga kirmaydigan mol-mulklar esa ko'char mulk hisoblanadi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga muvofiq qonun bilan man etilgan ayrim ashyolardan tashqari har kanday mol-mulk xususiy mulk bo'lishi mumkin. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish xususiy mulk huquqining vujudga kelishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiyotning, O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakldagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqiy ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, barcha mulk shakllarining teng

huquqiyligini va huquqiy jihatdan barobar muhofaza etilishi kafolatlanadi"²¹ deb belgilab qo'yilgan.

Davlat xususiy mulkni soliqqa tortish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga qarashli bo'lgan mulkning qonuniyligini hamda ularning harakatini nazorat qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa jamiyatdagi barcha mol-mulkning hisob-kitobini to'g'ri yuritish va ulardan belgilangan miqdorlarda soliq undirib borish mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobat bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi hamda narxlarning keskin o'zgarishi bevosita mol-mulkning tarkibiy qismi bo'lgan asosiy vositalar qiymatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Bu holatni esa davlat faqat korxona miqyosida emas, balki jamiyat miqyosida ham to'g'ri va aniq hisobi yuritilishini talab etadi. Mol-mulk qiymatini qayta baholash natijalarini esa ularni soliqqa tortishda ham inobatga olish zaruriyatini belgilaydi.

Mol-mulk solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati davlat byudjetining shakllanishi va uning daromadlarini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat fuqarolar mol-mulkining ko'payishidan bevosita manfaatdor bo'lganligi sababli, ularga tegishli bo'lgan mulklar daxlsizligini ta'minlashni o'z zimmasiga olib, qonuniy kafolatlaydi. Yuridik va jismoniy shaxslar esa o'z mol-mulkklarining daxlsizligi ta'minlanganligi evaziga o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkklaridan davlatga belgilangan tartib va miqdorlarda soliq to'laydilar. To'langan soliqlar mahalliy hokimiyatlar tomonidan aholini ijtimoiy himoyalash, ularning turmush darajasini yaxshilash kabi tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'ladi. Ya'ni, mol-mulk solig'i ob'ekti bo'lib nafaqat mol-mulk qiymati, balki vaqtida tugallanmagan qurilish va belgilangan muddatda o'rnatilmagan uskunalarining qiymati ham hisoblanadi.

²¹ O'zbekiston Respublikasi "Mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. T.: Adolat. 2003 y.

Bundan kelib chiqib esa soliq to'lovchilar o'z ixtiyoridagi mavjud keraksiz va ortiqcha uskunalar hamda mulklarning saqlanishiga chek qo'yishga intiladilar. Mol-mulk solig'ini undirish bilan bir qatorda davlat yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulkni respublika bo'yicha aniq hisobini olib borishi mumkin.

Soliq to'lovchilar har chorak va yil yakuni bo'yicha mol-mulkining haqiqiy o'rtacha qoldiq qiymatidan kelib chiqib, yil boshidan o'sib borish tarzida mustaqil ravishda tuzatishlar kiritib boradilar.

Yana bir masalaga diqqatimizni qaratmoqchimiz, ya'ni mol-mulk solig'ining rag'batlantiruvchilik xususiyatini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etishdir. Bizningcha bu minimumning joriy etilishi endigina o'z faoliyatini boshlagan, iqtisodiyot uchun muhim tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini birmuncha yaxshilashga xizmat qilgan bo'lar edi. Korxona imtiyozdan bo'shagan mablag'ni ishlab chiqarishga qayta tashlashi natijasida esa uning kelgusidagi soliq bazasini kengaytirilishiga erishilgan bo'lar edi. Kelgusida soliqqa tortiladigan bazaning kengayishidan esa davlat bevosita manfaatdordir. Bugungi kunda esa rivojlangan mamlakatlarda bu amaliyotdan keng miqyosda foydalaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mahalliy soliq va yig'imlar samaradorligini oshirish mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish yo'llaridan biridir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliqqa tortish islohotlari iqtisodiy yangilanishlarning tarkibiy qismi sifatida o'tish davrining umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda mahalliy soliqlar va yig'imlar tizimini davr talabidan kelib chiqib takomillashtirish, undan aholining turmush darajasini tartibga solish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va byudjetga muntazam ravishda daromadlar kelib tushishini ta'minlash uchun foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-bob bo'yicha hulosalar

Bugungi kunda davlat byudjetining salmoqli qismini soliqlar tashkil qilish bizga ma'lum. Shu bilan birga soliqlarni byudjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi umumdavlat va mahalliy soliq va yig'implarga taqsimlangani mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllanishida mahalliy soliqlarning salmog'I kamligi ularga biriktirilgan daromadlar bilan balanslashtiriladi. Bugungi kunda soliq kodeksiga muvofiq mahalliy soliq va yig'implar quyidagilar:

- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- yagona yer solig'i

Iqtisodiyotni mod'yernizatsiyalash sharoitida soliqqa tortish tizimi hamda soliq siyosatining samarali ishlashi iqtisodiy siyosatning nechog'lik mukammal yuritilishiga bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning real sektorlarini rivojlantirishga to'rtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aytish joizki, bugungi kunda bu borada qator chora -tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tadbirlarning tub negizini esa qo'yidagilar tashkil etdi:

- Soliqqa tortishni tashkil etishda soliqlarning fiskallik funksiyasiga asosiy e'tibor qaratish;
- soliqqa tortish tizimini imkon darajasida soddalashtirish;
- resurs soliqlarini byudjetdagi ahamiyatini oshirib borish;
- ishlab chiqarishni aynan soliqlar vositasi orqali rag'batlantirish;
- Davlat byudjetida egri soliqlar ulushini ko'tarish hamda ular vositasida mamlakatda iste'mol darajasini boshqarish siyosatini amalga oshirish;

- Byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar miqdorini imkon qadar oshirish;
- Iqtisodiyotda proteksionizm siyosatini amalga oshirishda soliqlar dastagidan unumli foydalanishdir. Soliqqa tortish tizimini yaratish borasidagi dastlabki qadam soliqlarning umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishi bilan bog'liqdir.

II BOB. MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

2.1. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibi va tuzilishining tahlili.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab ehtiyojlarni tuliqroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi muhim ahamiyatga molikdir. Bu yerda Prezidentimizning fikr-mulohazalari diqqatga sazovordir: "Davlat byudjeti daromadlarining katta qismini joylarga berish, mahalliy byudjetlarni mustahkamlash zurrur. Bu esa mintaqalar mustaqilligini oshirish, ularning tashabbuskorligini, byudjetning ijrosidan manfaatdorligi va bu boradagi mas'uliyatini oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu narsa mahalliy byudjetlarga tushumlarni yangi manbalarini qidirib topishga rag'batlantiradi, joylarda byudjet intizomini mustahkamlaydi".²²

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjet siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.


Mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini ta'minlash uchun ularning daromadlar bazasini ham mustahkamlash lozim. Buning uchun daromad olishni markazsizlashtirish lozim, bu mahalliy boshqaruv organlarini iqtisodiy bazani rivojlantirishga va o'z qaramog'idagi hududlarga investitsiya kiritishga xarakatlantiradi va natijada soliq tushumlarini ko'paytiradi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga mahalliy soliqlar va tushumlar doirasida moliya siyosatini

²² Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: "O'zbekiston", 1995, 208-bet

yurgizishda imkoniyat berilishi resurslarni samarali boshqarishga rag'bat uyg'otadi.

Ammo mahalliy hokimliklarga soliq vakolatlarini berish bilan birga ularning aholi oldida hisobot berishini ta'minlovchi institutsional mexanizmlarni ham hisobga olish kerak, aks holda berilgan vakolatlar ziyon keltirishi mumkin.

O'zbekistonda mahalliy byudjet daromadlarining asosiy manbasi mahalliy soliq va yig'imlar, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar va yuqori byudjetlardan tushumlardir.



2.1.-rasm.Mahalliy byudjetlar daromadlarining guruhlanishi²³

Har yili davlat byudjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliqq

²³ O'zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Biroq bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini istisno qiladi.

Har yili davlat byudjeti parametrlarini belgilashda har bir viloyat uchun umumdavlat soliqlarining har bir turi bo'yicha ajratmalar me'yori belgilanadi. Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me'yorining yillik o'zgarishi soliq daromadini boy va kambag'al hududlar orasida qisman qayta taqsimlashni ko'zda tutadi. Fikrimcha, bunday mexanizm mahalliy hokimliklarni hududlarning iqtisodiy va soliq bazasini rivojlantirishda rag'batini pasaytiradi, ularni soliq tushumlarini yaxshilashdan manfaatdor etmaydi. Bunday yondashuv moliyaviy rejalar va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatini cheklab qo'yadi. Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosatini samaradorligini oshirishda xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Biz yuqorida mahalliy byudjet daromadlari haqida umumiy ma'lumot oldik. Endi mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'ini tahlil qilish uchun quyidagi 1– jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

2.1- jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari keyingi yillarda zanjirli ravishda o'sib borgan. Shuningdek, bir vaqtning o'zida mahalliy byudjetlarning daromadlari davlat byudjeti daromadlariga nisbatan ancha ildamroq oshgan, ya'ni 2011 yilda mahalliy byudjetlar daromadlari 6924409,3 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2012 yilda bu ko'rsatkich 8535616,1 mln. so'mni ya'ni Davlat byudjeti daromadlariga nisbatan 41,4% ni tashkil qilgan. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan, mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjetidagi salmog'i Respublika byudjetining davlat byudjetidagi salmog'iga nisbatan past bo'lib qolmoqda, 2013 yilda bu ko'rsatkich 10497431,0 mln. so'mni tashkil etib, jami

Davlat byudjeti daromadlariga nisbatan 41,8% ni tashkil etishi kutilmoqda. Shunga qaramasdan, 2013 yilda Respublika byudjeti daromadlarining Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushining pasayishi ijobiy holat hisoblanib, bu esa o'z navbatida mahalliy byudjetlar daromadlar bazasining mustahkamlanishiga olib keladi.

2.1 -jadval.

Mahalliy byudjet daromadlarining 2011-2013 yillardagi dinamikasi tahlili²⁴.

Ko'rsatkichlar	Yillar		
	2011	2012	2013
O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari	16178563,5	20614100,0	25104900,0
Respublika byudjeti daromadlari	9254154,2	12078483,9	14607469,0
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%)	57,2	58,6	58,2
Mahalliy byudjetlar daromadlari	6924409,3	8535616,1	10497431,0
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%)	42,8	41,4	41,8

Barchamizga ma'lumki, mahalliy byudjetlarning eng muhim, asosiy daromad manbayi bo'lib mahalliy soliq va yig'imlar hisoblanadi. Ular hozirga qadar mahalliy byudjet daromadlarini o'sishiga qarab mutanosib ravishda shakllantirilib, takomillashtirilmoqda. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan bog'liq turli soxalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan isloxotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy byudjetlarning mavqeyini oshirish borasidagi chora-tadbirlarning aniq yo'nalishi mahalliy byudjetning daromad manbayini mustahkamlashga qaratilgandir.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibida o'zgarishlar nafaqat son jixatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jihatidan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qarorlari asosida tayyorlandi.

Mahalliy soliqlarning 2010 - 2013 yillardagi tahlilini quyidagi 2.2-jadvalda ko'rib chiqamiz.

2.2 - jadval

Mahalliy soliqlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi.²⁵

Ko'rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	mln.so'm	jamiga nisbatan % da	mln.so'm	jamiga nisbatan % da	Mln.so'm	jamiga nisbatan % da
I. Davlat maqsadli jamg'armalar daromadlarisiz – jami	16178563,5	100,0	20614100,0	100,0	25104900,0	100,0
<i>Shundan, mahalliy soliqlar- jami</i>	1798336,4	11,1	2089800,0	10,1	2720100,0	10,8
1.Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzil-mani rivojlantirish solig'i	530632,6	3,3	446400,0	2,2	659900,0	2,6
2.Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	430304,7	2,6	555400,0	2,7	582500,0	2,3
3. Mol- mulk solig'i	490536,2	3,0	642000,0	3,1	831400,0	3,3
4.Yer solig'i	346862,9	2,1	446000,0	2,2	646300,0	2,6

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, mahalliy soliqlar bo'yicha davlat byudjetiga tushum 2011 yildagi 1798336,4 mln.so'mdan 2012 yilda 2089800,0mln. so'mga oshgan. Shunga mos ravishda 2011 yilda jami davlat byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlar 11,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda esa mahalliy soliqlarning jami davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi 10,1% ni tashkil etib, 2011 yilga nisbatan ulushi birmuncha pasaygan. Lekin shunga

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24 dekabrda PQ-1449, 2011-yil 30 dekabrda PQ-1675 va 2012-yil 25 dekabrda PQ-1887 son qaroelari asosida tayyorlandi

qaramasdan, 2013 yilda mahalliy soliqlar 2720100,0 mln.so`m bo`lib, davlat byudjeti daromadlarida salmog`I 10,8 % ni tashkil etishi kutilmoqda.

Yuqoridagi tahlilga binoan shuni aytish mumkinki, mahalliy byudjetlarning daromad qismi umumdavlat va mahalliy soliqlar hisobiga shakllanadi. Republikamizda mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai hisoblangan mahalliy soliqlar va yig`imlar bilan bog`liq muammolar markazida ularning mahalliy byudjetlar xarajatlarini to'liq miqdorda moliyalashtira olmasligidadir. Shuning uchun ham umumdavlat soliqlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar, ya`ni tartibga solinadigan soliqlardan to'liq yoki qisman ajratmalar belgilash tizimi amal qiladi. Umumdavlat soliqlarning mahalliy byudjetlarga birlashtirilish me`yorlari hududlarning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasida nomutanosiblikdan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahalliy byudjetlarni boshqarish samaradorligini oshirishning muhim vazifalaridan biri u yoki bu hududlar ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti va ijtimoiy ehtiyojlari darajasini byudjet resurslari bilan ta'minlanganligi darajasiga o'zaro bog'liq holda olib borishdan iborat. Albatta, ehtiyojlarning o'sib borishi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti kabi ob'ektiv umumiy iqtisodiy qonunlarning amal qilishi ob'ektiv reallik va zaruriyat bo'lganidek hamda u yoki bu hudud ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotini ta'minlash uchun davlat byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va muvofiqlashtirishda aynan shu masalalarga asosiy e'tiborni qaratadi. U yoki bu hudud, mahalliy byudjetining byudjet tizimida tutgan o'rni, avvalo, mazkur mahalliy byudjetning daromadlari va harajatlari tarkibining optimalligiga, mazkur hudud iqtisodining mamlakat yalpi ichki mahsulotini yaratishdagi ulushiga, ushbu hudud aholisi dinamikasi va boshqa strategik makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga hamda boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

Mahalliy byudjetning soliq daromadlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- mol mulk solig'i;
- yer solig'i;

- jismoniy shaxslar tomonidan mashinalar uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz uchun olinadigan soliq;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromadlariga soliq;
- mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar daromadlariga qat'iy belgilangan soliq.

Bu mahalliy soliqlardan tashqari mahalliy byudjetga tartibga soluvchi soliq daromadlari bo'yicha ham tushumlar kelib tushadi. Ular mahalliy byudjetning iqtisodiy potensialidan kelib chiqqan holda umumdavlat soliqlarining ma'lum foizini ajratish hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarda 2011-2013 yillarda umumdavlat daromadlari va soliqlaridan ajratmalar me'yori bo'yicha ma'lumotlari asosida tahlil qilsak, ayrim viloyatlarga ajratmalar me'yori 2011 yilga nisbatan 2013 yilda oshirilgan bo'lsa, ayrimlarda kamaytirilgan. Jadval ma'lumotlaridan yana shuni ko'rish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimida Toshkent shahri va viloyati, Buxoro, Farg'ona, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlaridan tashqari barcha viloyatlarda ajratmalar me'yori 100 foizga teng. Bu yerda hududlarni tenglashtirish maqsadida soliqlarning taqsimot vazifasi katta rol o'ynamoqda. Kam rivojlangan hududlarda soliq tushumlari ushbu hududlar hisobida qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetidan tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalar me'yorlari viloyatlar va soliqlar bo'yicha differensiyalashgan bo'lib, xap yili qayta ko'rib chiqiladi. Bu me'yorlar moliyaviy yil boshlangunga qadar, umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xarajatlarning umumiy hajmi bo'yicha qabul qilingandan so'ng o'rnatiladi

Respublikamiz soliq tizimida mavjud mahalliy soliq va yig'imlarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayt etish mumkin:

- mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralari

tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyoji uchun ishlatiladi.

- ularning asosiy qismi mahalliy byudjetlarning bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;

- ularning huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy byudjetlarga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishini talab etadi va boshqalar.

Shuningdek mahalliy soliq va yig'implarning muxim xususiyatlaridan biri, ularni belgilash usuliga ko'ra ikki guruxga, yani respublika qonunchiligi bilan joriy etiladigan va mahalliy davlat hokimiyati idoralari qonunchiligi bilan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishidir.

Byudjetlar o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash nuqtai nazaridan soliqlarning bo'linishi va ularni byudjetning ma'lum bo'g'iniga biriktirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Prezidentimiz quyidagi fikrni bildirganlar: «Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir».²⁶

Mahalliy byudjetlarning xarajatlarini daromadlari bilan taqqoslash hamda uning dotatsiya yoki subvensiyadan foydalanish natijalariga qarab “o'z daromad bazasi bilan ta'minlanganlik” ko'rsatkichini aniqlash mumkin. Byudjet tizimida mahalliy byudjetlar bo'g'inining va ayniqsa, bir bo'g'indagi mahalliy byudjetlarning yuqori byudjet bo'g'ini bilan munosabatlarini tashkil etishda mahalliy byudjetlarning donor turini (o'z mablag'ini hisobiga boshqalarni ta'minlaydigan) yoki retsipient turini (o'z daromad bazasi yetishmasdan boshqa byudjetlar) farqlash lozim.

Ayni vaqtda mahalliy byudjet daromadlarining shakllanish mexanizmi quyidagicha:

- 1) Mahalliy soliqlar.
- 2) Umumdavlat soliqlaridan ajratmalar.

²⁶ Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida.-T.: «O'zbekiston», 1995. 208-b

3) Mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi tafovutni qoplashga qaratilgan byudjet dotatsiyasi.

4) Mahalliy byudjetda ko'zda tutilgan maqsadli xarajatlarni amalga oshirishga qaratilgan subvensiya.

Umumdavlat soliqlaridan yuridik shaxslarning daromad (foyda)lariga soliq, jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq, qo'shilgan qiymat solig'i va aktsiz solig'i tartibga soluvchi umumdavlat soliqlari deb atalib, har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadigan soliqlardir.

Yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi"ga muvofiq byudjet munosabatlarida turli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadigan quyidagi mablag'lar qaysi byudjetlardan yo'naltirilayotgan bo'lsa, shu byudjetlar xarajatlari tarkibiga, qaysi byudjetga borib tushayotgan bo'lsa, shu byudjetlar daromadlari tarkibiga kiritiladi:

1. Tasdiqlangan miqdorlar doirasida byudjet subvensiyalari va dotatsiyalari.
2. Byudjet ssudalari va ularning qaytarilishi.
3. Yuqorida ta'kidlangan qonunga va tegishli yilning Davlat byudjetiga muvofiq amalga oshiriladigan boshqa o'zaro hisob kitoblar²⁷.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, Respublikamiz Mahalliy byudjetlarining aksariyati o'zini o'zu qoplash imkoniyati mavjud emas. Xususan, Toshkent shahri, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Toshkent, Navoiy viloyatlari biriktirilgan daromadlar va umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar hisobiga o'zini o'zi 100% daromad bilan ta'minlaydilar. Lekin, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Namangan, Samarqand, Surxondaryo viloyatlari mahalliy byudjet xarajatlarini biriktirilgan daromadlar va tartibga soluvchi daromadlar hisobiga qoplash imkoniyatlariga ega emaslar. Ushbu holat hududlar iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi, demografik omillar bilan bevosita bog'liqdir.

²⁷ Ўзбекистон Республикасининг Бюджет Кодекси, 2013 йил 26 декабр, 52-модда

Mahalliy byudjetlarni o'z-o'zini daromad bilan qoplashi²⁸

(%da)

Hududlar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Qoraqalpog'iston Respublikasi	46,7	49,2	49,4
Andijon viloyati	51,6	55,2	52,1
Buxoro viloyati	100,0	100,0	100,0
Jizzax viloyati	40,9	46,2	47,7
Qashqadaryo viloyati	100,0	100,0	100,0
Navoiy viloyati	100,0	100,0	100,0
Namangan viloyati	40,8	44,2	48,7
Samarqand viloyati	44,8	47,2	45,3
Surxondaryo viloyati	41,7	47,7	46,5
Sirdaryo viloyati	70,2	69,8	61,3
Toshkent viloyati	100,0	100,0	100,0
Farg'ona viloyati	100,0	100,0	100,0
Xorazm viloyati	53,4	52,6	51,7
Toshkent shahri	100,0	100,0	100,0
Jami	71,5	72,9	72,6

Byudjetlar o'rtasida daromad va xarajatlarning har qanday ko'rinishdagi taqsimlanishi vertikal(tik) va gorizont(al) bo'ylama) mutanosibsizlikka olib kelishi mumkin. Byudjetning vertikal mutanosibsizligi(dibalansi) mahalliy byudjet xarajatlarining o'z manbalaridan oladigan daromadlaridan oshib ketishidir. Byudjetning gorizont(al) dibalansi esa, turli darajadagi byudjetlarda daromad va xarajat qoldiqlarining o'zgarib turishidir. Byudjet dibalansining mavjudligi davlatlarining o'tish davridagi xos xususiyat emas. Xususan gorizont(al) dibalans xarajatlar hajmidagi ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy aktivlik, tabiiy resurslar

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

va demografik omillarning geografik notekis taqsimlanishi oqibatidir. Malumki, gorizontal va vertikal dibalansni tenglashtirish, tekislash maqsadida Respublika byudjetidan, mahalliy byudjetlarga turli shakldagi moliyaviy yordamlardan foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahalliy byudjetlarni balanslashtirish maqsadida soliqlar va boshqa ko'rinishidagi daromadlar manbalarini turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tamoyillarga asosan taqsimlash amalga oshiriladi:

- byudjet tizimining bo'g'inlari o'rtasida daromadlar taqsimlanishi yagona tamoyillar va yondashuvlar asosida barqaror ravishda bo'lishi;

- har bir darajadagi byudjet bo'g'inining o'z daromadlari ularga biriktirib qo'yilgan xarajatlar vakolatlarini bajarish uchun asosiy resurslar manbai bo'lib qolishi;

- soliq vakolatlari va daromad manbalari taqsimlanishi byudjetning vertikal (byudjet bo'g'inlari o'rtasida) balanslashuvi tamoyillariga asoslanishi;

- tartibga soluvchi soliqlardan tushadigan tushumlarning bir qismi mahalliy byudjetlar o'rtasida shakllangan usullar asosida (aholi soni bo'yicha, byudjet taminoti bo'yicha va h.k.) taqsimlanishi mumkin.

2.2. Mahalliy budjetlar daromad bazalari va ularni boshqarish holati tahlili.

Bizga ma'lumki, daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi byudjet tizimini boshqarish mexanizmiga asoslanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida hududlarining rivojlanishidagi assimerik tafovutning mavjudligi natijasida asosiy davlat byudjetining daromadlari Respublika byudjetiga markazlashtirilib, ular qayta taqsimlanadi. Hududlar darajasida boshqarilishi samarali hisoblangan soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlarga biriktirilgan daromad manbai sifatida amal qilmoqda.

Mamlakatning soliq qonunchiligiga, davlat hokimiyati organlarining qarorlariga va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy aktlariga muvofiq o'rnatiladigan hamda tegishli mahalliy hududda to'lanishi shart bo'lgan soliq va yig'implarga mahalliy soliqlar va yig'implar deyiladi.

Har bir hudud iqtisodiyotining rivojlanish arajasi ulardagi soliq salohiyatini shakllanishiga ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. Bosh viloyatlar kabi Andijon viloyatida ham daromadlarni shakllanishi va uni byudjetlar o'rtasida taqsimlanishida umumdavlat soliqlarining hissasi yuqoridir.

2.5-jadval

Andijon viloyati byudjetida umumdavlat va mahalliy soliqlar salmog'i dinamikasi²⁹ (foizda)

Ko'rsatkichlar	2012 y.	2013 y.
Mahalliy byudjet daromadlari(dotatsiya va subventsiyalarsiz)	100	100
Umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar shaklidagi tartibga soluvchi daromadlar	70,4	69,9
Jami mahalliy soliqlar va yig'implar	29,6	30,1

Jadval ma'lumotlarining tasdiqlashicha, Andijon viloyati byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlar va yig'implarning ulushi 2012 yilda 29,6%ni tashkil etan bo'lsa, 2013 yilda rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bo'yicha 30,1%ni tashkil etgan. Bu o'z navbatida keyingi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida mahalliy soliqlarning salmog'i mahalliy byudjetlar daromadlarida ortib bormoqda. Bunday o'sish birinchidan mahalliy soliqlar va yig'implar tizimi bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani kengaytirilishi bilan, ikkinchidan, ularni tarkibiy qayta shakllantirilishi natijasida ko'payganligini kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa benzin, dizel yoqilg'isi iste'moli uchun soliqning joriy qilinishi natijasida mahalliy soliqlar tarkibida bir tomondan sezilarli tushum samarasiga

²⁹ Andijon viloyati moliya boshqarmasi ma'lumotlari

ega bo'lgan soliqqa asos solindi, ikkinchidan mazkur soliq mahalliy byudjetlarga real pul tushumlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

2.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetlar daromadlaridagi asosiy salmoqqa ega bo'layotgan mahalliy soliqlar mol-mulk solig'i, er solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda barcha mulk shaklidagi kichik korxonalar uchun yagona soliq tashkil qilmoqda.

2.6-jadval

Andijon viloyati byudjeti daromadlarida mahalliy soliqlar va yig'imlar tarkibi,³⁰ foizda

Mahalliy soliqlar va yig'imlar	2012 y	2013 y
Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i	7,2	9,1
Yuridik shaxslardan mol-mulk soligi	17,6	17,8
Jismoniy shaxslardan mol-mulk soligi	1,1	1,2
Mahalliy soliqlar va yig'imlar	16,4	15,1
Yig'imlar va turli soliqsiz daromadlar	1,1	1,2
Barcha mulk shaklidagi kichik korxonalar uchun yagona soliq	16,0	16,3
Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soligi	15,9	15,2
Ijaraga berilgan mulk uchun ijara to'lovi	0,3	0,3
Davlat mulkini sotib olish, foydalanishdan tushgan mablar	0,0	0,5
Mahalliy soliqlari va majburiy to'lovlar	100,0	100,0

Xususan, yuridik shaxslardan olinadigan mol- mulk solig'ining ulushi 2012 yilda jami mahalliy byudjet daromadlarida 17,6%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 17,8%ni tashkil qilgan. Agar mahalliy byudjet daromadlarini o'sish dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, mazkur soliq bo'yicha tushumlar miqdori o'sib borgan. Barcha mulk shaklidagi kichik korxonalar uchun yagona soliq jami mahalliy byudjet daromadlarida 2012 yil 16%ni tashkil qilgan bo'lsa, 2013 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 16,3%ni tashkil qilgan.

Endi Andijon viloyati Asaka tumani mahalliy budjet daromadlarining asosiy ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, tuman mahalliy budjet daromadlari 2012 yilda 51 254 400,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda 62 091 844,0 so'mni tashkil etgan. 2013 yilda mahalliy budjet daromadlari 121,1%ga ortiq rejalashtirilgan.

³⁰ Andijon viloyati moliya boshqarmasi ma'lumotlari

**Asaka tuman mahalliy byudjetining 2012-2013 yilgi
asosiy ko'rsatkichlari³¹ (ming.so'm hisobida)**

Ko'rsatkichlar	2012 yil jami tuman mahalliy byudjeti	2013 yil jami tuman mahalliy byudjeti	2012 yilga nisbatan 2013 yilda	
			Summada	Foizda
I. Daromadlar	51 254 400,0	62 091 844,0	10 837444,0	121,1
Qo'shilgan qiymat solig'i	1 371 955,0	2 147 935,0	775 980,0	156,6
Foyda solig'i	58 748,0	108 819,0	50 071,0	185,2
Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliq	5 559 790,0	6 632 470,0	1 072680,0	119,3
Aktsiz solig'i			0,0	
Yer solig'i (yagona yer solig'idan tashqari)	1 780 040,0	1 942 370,0	162 330,0	109,1
Yagona yer solig'i	590 660,0	1 650 020,0	1 059360,0	279,4
Yagona soliq	3 059 360,0	3 135 570,0	76 210,0	102,5
Yuridik shaxslardan mol-mulk solig'i	318 790,0	252 130,0	-66 660,0	79,1
Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'i	568 330,0	842 470,0	274 140,0	148,2
Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqarolardan daromad solig'i	784 870,0	1 275 760,0	490 890,0	162,5
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	183 170,0	208 310,0	25 140,0	113,7
Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	37 580,0	37 450,0	-130,0	99,7
Davlat boji	606 710,0	1 219 960,0	613 250,0	201,1
Jarimalar	250 790,0	298 830,0	48 040,0	119,2
O'zR IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan undiriladigan yig'imlar		10 680,0	10 680,0	
Sotilgan benzin va dizel yoqilg'isi uchun soliq	1 978 270,0	2 088 200,0	109 930,0	105,6
Mahalliy soliqlar va yig'imlar	19 570,0	26 500,0	6 930,0	135,4
Boshqa soliq va yig'imlar	89 870,0	250 970,0	161 100,0	279,3
Dehkon bozorlaridan yig'im	82 840,0	105 220,0	22 380,0	127,0
Daromadlar jami	17 341 343,0	22 233 664,0	4 892 321,0	128,2
Dotatsiya			0,0	
Subventsiya	33913057	39 858 180,0	5 945123,0	117,5

³¹ Andijon viloyati Asaka tuman Moliya bo'limi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

Daromadlar tarkibiga qaraydigan bo'lsak, jami daromadlarning 17 341 343,0 ming so'mini tuman o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantirgan 2012 yilda qolgan 33913057 ming so'mni subvensiya hisobiga shakllantirilgan.

Tuman mahalliy budjetining 34% daromadini o'z moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqib shakllantirarkan.

2013 yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda, 22 233 664,0 ming so'mni va jami daromatlari 62 091 844,0 ming so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan.

Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatiga, o'zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab mahalliy soliq va yig'imlar ikkiga bo'linadi:

1) qonunchilik hokimiyat organi tomonidan joriy etiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar;

2) mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Mahalliy soliqlar orasida katta salmoqni tashkil qiluvchi soliqlardan biri yer solig'i hisoblanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini undirish mexanizmi tahlili bevosita Andijon viloyati Asaka tumani ma'lumotlari tahlilidan boshlaymiz.

2.8-jadval

Asaka tuman mahalliy byudjetining 2012-2013 yilgi asosiy ko'rsatkichlari³²(ming.so'm hisobida)

Mahalliy budjet o'z daromatlari	17 341343,0	22 233 664,0	4 892 321,0	128,2
Yer solig'i (yagona yer solig'idan tashqari)	1 780 040,0	1 942 370,0	162 330,0	109,1
Yagona yer solig'i	590 660,0	1 650 020,0	1 059 360,0	279,4
jami daromadda yer solig'ining ulushi (foizda)	10,2	8,7	-1,5	85,1
jami daromadda yagona yer solig'ining ulushi (foizda)	3,4	7,4	4,0	217,9

³² Andijon viloyati Asaka tuman Moliya bo'limi ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, mahalliy budget daromadlarida yer solig'I 1780040,0 ming so'mni tashkil etgani holda 10.2 % salmoqqa ega bo'lgan 2012 yilda, 2013 yilda esa 1942370,0 ming so'mga rejalashtirilgan bo'lib 8,7 %ni tashkil etadi.

Mahalliy budget daromadlarida yagona yer solig'I 590 660,0 ming so'mni tashkil etgani holda 3,4 % salmoqqa ega bo'lgan 2012 yilda, 2013 yilda esa 1 650 020,0 ming so'mni tashkil etgan bo'lib 7,4 %ni tashkil etadi.

2.3. Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash siyosatining ulardagi subventsia darajasini qisqartirishga ta'sirining tahlili.

Byudjet siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri-mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va ularning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish hisoblanadi. Hozirgi sharoitda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining joylardagi ijtimoiy- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi mas'uliyatini oshirish muammosi kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib, mazkur muammolarni hal qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, ularning barqaror daromad manbai bilan ta'minlash mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisbanadi.

Yuqoridagi paragraflarimizda ko'rib o'tganimizdek mahalliy byudjetlarning daromadlari tarkbida tartibga soluvchi daromadlar mavjud bo'lib, ularning qatorida moliyaviy tenglashtirish siyosati bo'yicha kelib tushuvchi daromadlarning ulushi yuqori bo'lmoqda. Moliyaviy tenglashtirish siyosati bo'yicha kelib tushuvchi daromadlar tarkibida dotatsiyalarlarning ulushi yil sayin qisqarib bordi. Har bir yuqori byudjetdan quyi byudjetlarga ajratiladigan daromadlar amaldagi byudjet qonunchiligiga ko'ra "byudjetlararo transfertlar"- deb nomlanib, o'ziga xos ravishdagi funktsional vazifalarni bajarib, ular hudud iqtisodiyotni rivojlantirish yoki hududlar byudjet salohiyatidan oqilona foydalanish jarayoniga negativ yoki pozitiv ta'sir etadi. Bunday trasfertlar "O'zbekston Respublikasi Byudjet Kodeksi" ning 134-moddasida quyidagicha ifodalangan:

«Byudjetlararo transfertlar subventsiyalar, o'tkazib beriladigan daromadlar, dotatsiyalar, byudjet ssudasi va o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar shaklida amalga oshiriladi.

Byudjetlararo transfertlarning hajmlari:

– joriy moliya yilida turli darajadagi byudjetlar daromadlari va xarajatlari o'zgarishiga sabab bo'luvchi qonun hujjatlari qabul qilinganda;

– tegishli barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan hamda byudjetdan ajratiladigan mablag'larning o'zlashtirilishidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Yuqori turuvchi moliya organi tashabbusi bilan yuqori turuvchi byudjet quyi turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning bir shakli bo'yicha majburiyatlari quyi turuvchi byudjetning yuqori turuvchi byudjet oldidagi byudjetlararo transfertning boshqa shakli bo'yicha majburiyatlarini kamaytirish evaziga hisobga olinishi mumkin»³³.

Jahon amaliyotida mahalliy byudjetlarning moliyaviy imkoniyatlari ularning absolyut barqarorligi orqali ifodalanadi. Ular tomonidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni biriktirilgan daromadlar(asosan mahalliy soliqlar va yig'imlar) va meyoriy ajratmalar shaklidagi tartibga soluvchi daromadlar hisobiga to'liq moliyalashtirish imkoniyatlari tushuniladi. Buni quyidagi formula asosida ko'rib o'tishimiz mumkin:

$$B_x < D_b + D_t;$$

B_x – byudjet xarajatlari;

D_b - byudjetning biriktirilgan daromadlari;

D_t - tartibga soluvchi daromadlar;

Agar, biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlar etishmasa bunday sharoitda moliyaviy tenglashtirish siyosati bo'yicha yuqori byudjetdan moliyaviy

³³ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013 yil.134-modda

yordam shakllari hisobiga mablag'lar ajratiladi. Bunday holat mahalliy byudjetlarning nobarqarorlik holati sifatida e'tirof etiladi.

Moliyaviy yordam shakllari tarkibida keng tarqalganlaridan biri dotatsiyalar hisoblanib, dotatsiyalar mahalliy o'z o'zini boshqarish organlarining boqimandalik kayfiyatini oshirib yuborishi mumkin. Mazkur muammoga ta'sir etuvchi omillarni umumlashtirilgan holda 2 turga ajratishimiz mumkin:

Birinchidan, soliqlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liq turli darajadagi byudjetlarni vertikal va gorizontal tenglashtirish tizimidagi mavjud muammolar;

Ikkinchidan, hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasining nisbatan pastligi va ulardagi mavjud iqtisodiy salohiyatdan unumli hamda omilkorlik bilan foydalanilmaslik bilan bog'liq muammolar.

Byudjetlararo transfertlar tizimida dotatsiyalar o'ziga xos funktsionla vazifani bajaruvchi dotatsiyalar hisoblanadi. 2007 yildan boshlab hududlarni dotatsiyadan chiqarish davlat dasturiga muvfiq dotatsion rejimdagi o'rta bo'g'in byudjetlar (Qoraqapog'iton Respublikasi, Toshkent shaxri va viloyatlar byudjetlari) tugatildi. O'rta bo'g'in byudjetlardan dotatsiyalar olish hisobiga xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'luvchi tumanlar va shaharlar soni ham qisqartirilib borildi.

Byudjetlararo transfertlar tizimida subventsionalarning ham o'ziga xos ahamiyati mavjud bo'lib, subventsionalar "O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi"³⁴ga muvofiq "**Subventsiya** — muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori turuvchi byudjetdan quyi turuvchi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari"³⁵.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq, subventsionalar asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilangan xarajatlarni amalga oshirish uchun ajratiladi.

³⁴ ³⁵ O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013 yil.134-modda

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga beriladigan subventsiyalarning miqdorlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va Davlat byudjetining asosiy parametrlari tasdiqlanayotganda belgilanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga beriladigan subventsiyalarning miqdorlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston respublikasi byudjet tizimidagi subventsiyalarning o'rni va ahamiyati quyidagi jadvalda keltirib o'tiladi.

2.9-jadval

2013 yilda Byudjet tizimida subventsiyalarning o'rni va ahamiyati to'g'risida ma'umot³⁶

№	Nomlanishi	Miqdori
1.	Jami hududlar soni	14 ta
2.	Jami tuman (shahar)lar soni	193 ta
3.	Subventsiya oluvchi hududlar	8 ta
4.	Subventsiya oluvchi tuman (shahar) soni	155 ta (80,3 %)
5.	8 ta subventsiya oluvchi hududdagi subventsiya oluvchi tuman (shahar) soni	108 ta
6.	6 ta subventsiya olmaydigan hududdagi subventsiya oluvchi tuman (shahar) soni	47 ta

Javdal ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2013 yilda jami 14 ta hududlardan 8 tasi yuqori byudjetlardan subvetsiyalar olish hisobiga o'z xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar. Ushbu hududlar umumiy mezonlar bo'yicha kuchsiz donor hududlar hisoblanib ulardagi jami 193 ta tumanlardan 108 tasi subventsiya olish hisobiga xarajatlarni moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar. 6 ta subventsiya olmaydigan hududdagi subventsiya oluvchi tuman (shahar) soni 47 tani tashkil etadi. Yuqoridagi holatlar

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

kuchli va kuchsiz donor hududlar byudjetlarining o'zaro yuqori turuvchi byudjetlarga bog'liqligini ko'rsatib bermoqda.

2.10-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarda 2013 -yilda rejalashtirilgan daromad va xarajatlarning taqsimlanishi va ularda dotatsiya va subvensiyalarning tutgan o'rni³⁷ (mln.so'm)

№	Hududlar	Daromadlar		Xarajatlar		Markazlashgan investitsiyalar uchun subvensiyalar va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan daromad	
		Mln. so'm	%	Mln. so'm	%	Mln. so'm	%
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	485014,8	4,6	939840,2	6,6	454825,4	12,3
2	Andijon viloyati	635705,0	6,1	1178798,2	8,3	543093,2	14,7
3	Buxoro viloyati	804003,2	7,6	804003,2	5,7		
4	Jizzax viloyati	294886,3	2,8	608909,5	4,3	314023,2	8,6
5	Qashqadaryo viloyati	1245654,2	11,9	1245654,2	8,7		
6	Navoiy viloyati	526199,9	5,0	526199,9	3,7		
7	Namangan viloyati	556423,1	5,3	1087581,8	7,7	531158,7	14,4
8	Samarqand viloyati	729092,6	6,9	1500597,5	10,6	771504,9	20,9
9	Surxandaryo viloyati	514861,4	4,9	1071092,0	7,6	556230,6	15,1
10	Sirdaryo viloyati	268682,4	2,6	421179,4	3,0	152497,0	4,1
11	Toshkent viloyati	1190387,8	11,3	1190387,8	8,4		
12	Farg'ona viloyati	1520697,1	14,5	1520697,1	10,7		
13	Xorazm viloyati	417226,7	4,0	781321,1	5,5	364094,4	9,9
14	Toshkent shahri	1308596,5	12,5	1308596,5	9,2		
	Jami	10497431,0	100,0	14184858,4	100,0	3687427,4	100,0

2.10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 8 ta subventsia oluvchi tumanlarning daromadlarini shakllanishida subvensiyalarning ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 15 ta tumanning barchasi subvensiyalar olib, ular daromadlaridagi subvensiyalarning ulushi 48%ni tashkil etadi. Andijon viloyatida ham barcha tumanlar subventsia oladilar va ularning daromadlarida subvensiyalarning ulushi 46%ni tashkil etmoqda.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 25 dekabrda PQ-1887 son Qarori asosida tayyorlandi.

Shuningdek, tahlil qilinayotgan barcha hududlardagi mavjud tumanlarning barchasi subventsia olib, o'rtacha subventsiyalarning daromadlardagi ulushi 48%ni tashkil etgan.

2.11-jadval

2013 yilda Respublika hududlarida subventsiyalar to'g'risida

MA'LUMOT³⁸

№	Hududlar nomi	Jami tuman (shahar) soni	Shundan, subventsia oladigan	Subventsia ulushi (%)
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	15	15	48%
2	Andijon viloyati	16	16	46%
3	Jizzax viloyati	13	13	52%
4	Namangan viloyati	12	12	49%
5	Samarqand viloyati	16	16	51%
6	Surxondaryo viloyati	14	14	52%
7	Sirdaryo viloyati	11	11	36%
8	Xorazm viloyati	11	11	47%
	Jami	108	108	48%

Bu holat shundan dalolat beradiki, subventsia oluvchi 8 hududlardagi barcha tuman va shaharlarning byudjet daromadlarini shakllantirishda subventsiyalarning ulushi yuqori bo'lib, ular xarajatlarning ijrosi subventsia shaklidagi moliyaviy yordam shakliga kuchli bog'langandir.

Bu holat Respublika byudjetidan suventsia olmaydigan donor hududlarda ham kuzilmoqda. Xususan, Buxoro viloyatida 13 tadan 8 ta tumanlar, Qashqadaryo viloyatida 14 ta tumandan 10 tasi, Navoiy viloyatida 10 ta tumandan 6 tasi, Toshkent viloyatida 18 ta tumandan 7 tasi, Farg'ona viloyatida

³⁸ O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi ma'lumotlari

18 ta tumandan 7 tasi subventsiyalar hisobiga xarajatlarini moliyalashtirish imkoniyatlariga ega bo'lmoqdalar.

2.12-jadval

Maxalliy byudjetdan subventsiya oladigan donor hududlar

№	Hududlar nomi	Jami tuman (shahar) soni	shundan subventsiya oladigan	Subventsiya ulushi
1	Buxoro viloyati	13	8	63%
2	Qashqadaryo viloyati	14	10	33%
3	Navoiy viloyati	10	6	55%
4	Toshkent viloyati	18	7	12%
5	Farg'ona viloyati	19	16	52%
	Jami	74	47	43%

Ushbu donor hududlar tarkibidagi tuman va shaharlar daromadlari tarkibida subventsiyalarning ulushi 43%ni tashkil etmoqda. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, Respublika byudjetidan subventsiya olmaydigan donor hududlarimiz tarkibidagi tuman va shaharlar byudjetlari xarajatlarining ijrosi subventsiyalarga kuchli bog'langan.

Yuqoridagilar shuni tasdiqlaydiki, keyingi yillarda dotatsion rejimdagi mahalliy byudjetlar kamaytirilgan bo'lsa-da, subventsiyalarning ulushini yuqori bo'layotganligi mahalliy byudjetlarning byudjet salohiyatini oshirish, ularning daromad bazasini yanada mustakamash bo'yicha islohotlarning o'ziga xos strategiyasi va dasturlarni ishlab chiqish zarurligini taqozo qilmoqda.

2- bob bo'yicha hulosalar

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini shakllanish amaliyotining tahlillari natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida birlashtirilgan daromadlarining salmog'i past darajada bo'lmoqda. Daromadlari tarkibida umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar, subventsiyalar shaklidagi daromadlarning salmog'i yuqori bo'lmoqda. Bu holat mahalliy byudjetlar

ijrosining yuqori byudjetlardan moliyaviy yordam shaklida kelib tushuvchi daromadlarga kuchli bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibidagi subventsionalarni yuqori bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini pasaytirish bilan birga, boqimandalik kayfiyatini vujudga keltirmoqda.

Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash imkoniyatlari birinchi navbatda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish hisobiga byudjet salohiyatini yuksaltirish va daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Mahalliy davlat xokimiyati organlarining soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini oshirish va boqimanda qarzlarni kamaytirish bo'yicha aniq chora tadbirlar rejasini ishlab chiqishi lozim.

III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZITSIYALASH SHAROITIDA MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

3.1. Mahalliy budjetlar daromad bazasini shakllantirishning xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlari

Rivojlangan davlatlarda mahalliy soliqlar mexanizmi va Respublikamiz iqtisodiyotidagi holati o'rtasidagi umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bu soliqlar va soliqsiz to'lovlar, yuqori byudjetdan ajratiladigan ajratmalar (dotatsiya, subventsiya) tashkil etsada, biroq, har bir davlatda markazlashtirilgan va hududiy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli jihatlari ham mavjuddir.

AQSh va boshqa bir qator g'arb davlatlarning hududlar moliyaviy resurslarini turli guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga bu hududlarning o'ziga tegishli biriktirilgan va shu hududdan undiriladigan soliqlar sifatidagi moliyaviy resurslar bo'lib, ular to'g'ri va egri soliqlardan iborat bo'ladi. Ikkinchi guruhga shunday moliyaviy resurslar kiradiki, bu xuddi bizning Respublikamizda amalda bo'lgani kabi umudavlat soliqlardan mahalliy hududlarga muayyan foizda ajratmalardan iborat bo'ladi. Respublikamiz byudjet tizimida bo'lgani kabi yuqori byudjetlardan qo'yi byudjetlarga subsidiyalar ajratish boshqa bir qator davlatlarga xususan, AQSh moliya tizimiga ham xosdir. Chunonchi, Vashington mahalliy byudjeti 84 foizi biriktirilgan moliyaviy resurslar hisobiga shakllansa, qolgan 16 foizini federal byudjetdan ajratilgan subsidiyalar tashkil etadi. Shuningdek Nyu-York mahalliy byudjetida subsidiyaning ulushi 32 foizga tengdir. AQShda ham xuddi bizdagi singari hukumat subsidiya, subventsiya va dotatsiyalarni yuqori byudjetlardan qo'yi byudjetlarga ajratish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etib turadi³⁹.

³⁹ James E. Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 126.

Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirish jarayonidagi AQShdagi eng muhim va boshqalardan xususan respublikamizdan farq qiluvchi jihatlaridan biri bu u yoki bu soliq turlarining xududlar bo'yicha tabaqalashtirilgan stavkalarining qo'llanilishi hamda ayrim soliqlarning ba'zi hududlarda amal qilishi boshqa hududlarda esa amal qilmasligi bilan farqlanadi. Masalan, hududlarning asosiy moliyaviy resurslaridan biri hisoblangan savdo-sotiq uchun solig'i ayrim hududlar uchun 6 foiz bo'lsa, boshqasida 1 foiz va shu kabi tartibda undiriladi. Bundan tashqari iqtisodiy (ishbilarmonlik) faollik solig'i Kaliforniya shtatida qo'llanilsa, boshqa bir hududlarda qo'llanilmasligi holati ham mavjuddir. Savdo-sotiq solig'i shuningdek, ayrim hududlarda xususan, Alyaska, Delaver, Nyu-Djersi shtatlarida amal qilmasada, boshqa hududlarda esa mahalliy hokimiyatlarning o'zlari belgilagan stavkalari asosida tebranib turishi mumkin⁴⁰. Qayd etish joizki, AQShda hududlarning moliyaviy resurslarining shakllanishida mulk solig'i katta salmoqni egallaydi. Masalan, Nyu-York shtati mahalliy byudjetida bu soliq hisobiga jami moliyaviy resurslarning 40 foizra yaqini shakllanadi, o'z navbatida, bu soliq turi ham barcha hududlar uchun bir xil tartibda belgilanmaydi. AQShda mulk solig'ining o'rtacha stavkasi 1,4 foizni tashkil etsada, bu Illinoys shtatida uning stavka miqdori 6,7 foizga tengdir. Bundan tashqari AQShda hududlarning moliyaviy resurslari ayrim turdagi mahsulotlarni sotish uchun litsenziyalar, uy hayvonlarini saqlash uchun ruxsatnomalar va shu kabilardan tushgan yig'implardan ham shakllanadi. Ayni bu holatning ko'pchiligi respublikamiz iqtisodiyoti uchun xosdir.

Buyukbritaniyada esa mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy manbai bo'lib kuchmas mulklar, yer, uy-joy, magazinlar, zavod va fabrikalardan undiriladigan soliq hisoblanadi. Mol-mulk qiymati muntazam qayta baholab boriladi. Soliqqa tortish maqsadlarida mol-mulkni baholashni ichki daromadlar Boshqarmasi qoshidagi maxsus baholash komissiyasi amalga oshiradi⁴¹.

⁴⁰ Griffin & Ebert. Business. 7th edition. Prentice-Hall. 2004. p. 42.

⁴¹ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. // -М.: "Кнорус". 2004. стр 81

O'zgaruvchan inflyatsiya sharoit soliqqa tortish maqsadida mulkni muntazam qayta baholab borish O'zbekiston soliq tizimi uchun ham foydadan xoli bo'lmaydi. Shuningdek, mol-mulkni qayta baholashni soliqqa tortish maqsadlariga muvofiqlashtirish uchun qayta baholash organlarining soliq xizmati qoshida tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi.

AQShda esa mol-mulk solig'i mahalliy soliq sifatida asosiy o'rinni egallagan holda, 100 ga yaqin turli xil mahalliy soliq turlari ham mavjud. Har bir shtatda turfa soliq turlarini uchratish mumkin: masalan Koliforniyada faol ishbilarmonlik solig'i olinadi, bu soliq ob'ektlari yillik oborot (2,5 foizgacha) va korxona ish haqi fondi (1,6 foiz) hisoblanadi⁴².

Frantsiya byudjetida mol-mulkdan soliq yuqori salmoqqa ega. Bu soliqqa mol-mulk, mol-mulk huquqi va qimmatbaho qog'ozlar tortiladi. Mol-mulk tarkibiga binolar, sanoat va qishloq xo'jalik korxonalari, harakatlanuvchi mulk, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Frantsiyada ba'zi mol-mulk ushbu soliq turidan qisman yoki to'liq ozod etilgan. Shular jumlasiga professional faoliyat doirasida foydalanish uchun mo'ljallangan mol-mulk, qishloq xo'jaligiga oid ba'zi mol-mulk turlari, tarixiy yodgorlik buyumlar, badiiy va kollektsiya buyumlari kiradi.

Germaniya Respublikasida byudjet tizimining asosiy daromad manbai bo'lib jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, korporatsiyadan olinadigan soliq qo'shilgan qiymat solig'i, tadbirkorlik (xunarmandchilik) solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer uchastkalarini sotish jarayonidan undiriladigan soliq, sug'urta badallari, merosdan olinadigan soliq, transport solig'i, bojxona bojlari va davlat yig'implari hamda ayrim turdagi mahsulotlar uchun aktsiz soliqlari va shu kabilar hisoblanadi. Bu davlatda ham hududlarning moliyaviy resurslarini shakllanishida yuqori byudjet bo'g'inlaridan ajratiladigan subsidiya, subventsiya va dotatsiyalar ham alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, umumdavlat soliqlaridan xuddi O'zbekiston Respublikasidagi kabi qo'yi byudjetlarga muayyan foizlarda

⁴² James E.Smith. West Federal taxation: Taxation of business entities. 2005 e. p. 128

ajratmalar qilinadi. Masalan, korporatsiyadan olinadigan soliqning 50 foizi federal byudjetga, 50 foizi hududlarga. Davlat byudjeti daromadlarini shakllanishida eng katta salmoqqa ega bo'lgan ushbu soliqlardan tushadigan tushumlarning 42,5 foizi federal byudjetga, qolgan 57,55 foizi esa turli xil darajadagi va makomdagi mahalliy byudjetlar ixtiyoriga yo'naltiriladi⁴³.

Sharq davlatlarida xususan Yaponiyada ham AQSh va G'arbiy Evropa davlatlari kabi umumdavlat va mahalliy soliqlar amal qilib ular hisobiga federal va hududlarning moliyaviy resurslari shakllanib boradi. Bu yerda mahalliy soliqlarga nisbatan umumdavlat soliqlarining hissasi yuqori bo'lib ular hisobiga byudjet jami moliyaviy resurslarining 64 foizidan ko'prog'i shakllanib qolgan qismi mahalliy soliqlar hisobiga to'g'ri keladi⁴⁴.

Yaponiya soliq tizimida hududlarning byudjet daromadlarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratiladi. 90-yillarning boshlarida hududlarning umumiy moliyaviy resurslari 80,41 trln. ienani tashkil etib, ulardan mahalliy soliqlar 33,45 trln. iena yoki mahalliy byudjet daromadlarining 41,6 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari 14,33 trln. iena yoki 17,8 foizi umumdavlat soliqlaridan berilgan ajratmalarga to'g'ri keladi. Hududlarga bu davrda maqsadli tarzda 10,65 trln. iena (mahalliy byudjetlarning 13,2 foizi) dotatsiya berib, qolgan 20,3 trln. ien soliqsiz to'lovlar hissasiga to'g'ri kelgan. Mahalliy byudjet moliyaviy resurslariga e'tibor beradigan bo'lsak, jami moliyaviy resurslar 33,45 trln. ienani tashkil etib, ularning 35,6 foizi daromad solig'i, 41,1 foizi mol-mulk solig'i qolgan 27,2 foizini esa iste'mol solig'i tashkil etadi⁴⁵.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish mexanizmi bilan chet davlatlar xususan Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda ushbu jarayonlarning holati va harakati o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjuddir. Bu o'xshashliklar federal va hududlarning byudjet

⁴³ Александров И. Налоговые системы России и зарубежных стран. -М.: "Бератов-Пресс". 2002. Стр. 121

⁴⁴ Черник Д. Налоги. -М.: "Финансы и статистика". 1996. стр. 436

⁴⁵ Бард В., Павлова Л. Налоги в условиях экономической интеграции. //.-М.: "Кнорус". 2004. стр 96

daromad soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan foizlarda subventsia, subsidiya va dotatsiyalar shaklida ajratmalar qilinishi byudjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.

3.2. Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.

Moliya-byudjet islohotlarini o'tkazish jarayoni, avvalo, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga ko'proq mustaqillik berishni, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda ular rolini oshirish va shu bilan bir vaqtda ular moliyaviy bazalarini mustahkamlash, butunlay yangi moliya-byudjet va soliq mexanizmini yaratish, byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish va davlat byudjeti ijrosini ta'minlashning uslubiyoti va tamoyillarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda byudjetlararo munosabatlar tizimini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga muvofiq byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha aniqlik kiritilgan, "Byudjetlararo munosabatlar O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari, Toshkent shahrining shahar byudjeti, tumanlar, shaharlar byudjetlari, shuningdek davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari o'rtasidagi ushbu Kodeks bilan tegishli byudjetlarga birlashtirilgan xarajatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tegishli byudjetlarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga doir munosabatlardir"⁴⁶. Kodeksdagi bunday talqin davlat hokimiyati organlari o'rtasidagi barcha sohalaridagi va har kanday munosabatni "byudjetlararo munosabatlar" deb hisoblash mumkin, degan noto'g'ri xulosa chiqarishga asos bo'lib qoladi. Fikrimizcha, byudjetlararo munosabatlarning konunda belgilangan ta'rifini yanada aniqlashtirish, uning ilmiy asoslanganligini oshirish lozim.

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси Бюджет Кодекси. Тошкент, 2013 йил, 20-боб, 132-модда,

Byudjetlararo munosabatlar mazmuni va turli adabiyotlarda talqin etilish darajasini tahlil etish natijasida shunday xulosa qilish mumkin: byudjetlararo munosabatlar sodir bo'layotgan byudjet tizimi darajalariga ko'ra ularni byudjet tizimi pog'onalari o'rtasidagi va bir darajadagi byudjet bo'g'inlari o'rtasidagi munosabatlarga bo'lish mumkin. Demak, "byudjetlararo munosabatlar" tushunchasi, bizning fikrimizcha, quyidagilarni o'z ichiga olmog'i lozim:

- byudjet jarayonida yuzaga keluvchi munosabatlarning birmuncha to'liqroq tarkibini;
- davlat hokimiyati boshqaruv organlarining o'zaro (bir darajadagi) munosabatlarini;
- quyi byudjet bo'g'inlarining respublika byudjeti bilan o'zaro munosabatlarini;
- moliyaviy yordamning nafaqat yuqoridan quyiga, balki quyi byudjetlardan yuqori byudjetlarga ham berilish holatlarini va hokazo.

Bulardan kelib chiqib, byudjetlararo munosabatlarning iqtisodiy voqelik sifatidagi tabiatini tahlil qilish asosida quyidagilarni ta'kidlash zarur:

- birinchidan, byudjetlararo munosabatlar - keng qamrovli byudjet siyosatini markaziy va hududiy darajada amalga oshirish jarayonining ajralmas qismidir;
- ikkinchidan, byudjetlararo munosabatlar byudjet siyosatining boshqa yo'nalishlariga nisbatan birlamchi ahamiyat kasb etadi;
- uchinchidan, byudjetlararo munosabatlar — nafaqat boshqaruvning turli darajalaridagi hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabat, balki eng avvalo, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari sub'ektlari o'rtasida markaz orqali shakllangan va davlat hokimiyatiga uning aniq funktsiyalarini hududiy darajada bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadida berilgan barcha pul mablag'larining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlardir;
- to'rtinchidan, hududlardan, joylardan markaziy hokimiyat

(respublika darajasi)ga mablag'lar tushib turishining ta'minlanishi o'z navbatida ularga davlat boshqaruvi bo'yicha aniq vazifalar va majburiyatlarning bajarilishini talab qilib olish huquqini ham beradi, bu holat respublika davlat hokimiyatining o'z hududlari manfaatida yagona va samarali boshqaruvni ta'minlaydi. Shu bilan birga, respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga mablag'larni ajratilishi mamlakatni markazdan boshqarishda mahalliy byudjetlar zimmasidagi majburiyatlarning bajarilishi uchun dastak yaratadi hamda hududlarda ma'lum mahalliychilik kayfiyatlari yuzaga kelishining ob'ektiv asoslarini bartaraf etadi;

- beshinchidan, byudjetlararo munosabatlar - bu mutlaqo teng ahamiyatli tarzda quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga harakatlanuvchi moliyaviy oqimlardir. Ushbu munosabatlarsiz turli darajadagi byudjetlarni muvaffaqiyatli shakllantirib bo'lmaz edi.

Shunday qilib, byudjetlararo munosabatlarga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: «Byudjetlararo munosabatlar - davlat byudjet mexanizmining muhim ajralmas elementi bo'lib, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari sub'ektlari o'rtasida markaziy boshqaruvning markazdan turib barcha moliyaviy oqimlarni taqsimlash jarayonini oqilona tartibga solishni ta'minlaydi va bundan tashqari, markaziy hukumatning aniq funktsiyalarini davlat boshqaruvining turli darajalarida huquq va majburiyatlarni o'zaro taqsimlab olish orqali bajarish uchun davlat byudjetida jamlangan pul mablag'larining ushbu sub'ektlar o'rtasida qayta taqsimlanishini o'z ichiga oluvchi munosabatlar yig'indisidir».


Davlat byudjetining mablag'lari turli darajadagi byudjetlar o'rtasida quyidagi tarzda qayta taqsimlanadi:

- umumdavlat soliqlari va boshqa umumdavlat daromadlari bir qismining belgilangan tartibda o'rnatilgan me'yorlar asosida turli darajadagi byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi asosida;
- yuqori byudjetlardan quyi byudjetlarga byudjet subventsionalari va dotatsiyalarini ajratilishi asosida;

- yuqori byudjet bo'g'inidan quyi byudjet bo'g'lariga, shuningdek, quyi byudjet bo'g'laridan yuqori byudjet bo'g'lariga byudjet ijrosi jarayonida yuzaga keluvchi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larning yo'naltirilishi asosida;

- byudjet ssudalarining ajratilishi asosida.

Hozirgi budjet amaliyotidagi jarayonlarning tahlili mahalliy budjetlar huquq va majburiyatlarining ortib borayotganligi sharoitida ular moliyaviy imkoniyatlarining ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida ancha past ekanligini ko'rsatadi.



3.1–rasm. Mahalliy budjetlarning daromad bazalarini mustahkamlash imkoniyatlari⁴⁷

⁴⁷ A.Vahobov, T.Malikov. Moliya. Darslik. T: 2012 y.153 b.

Hududiy iqtisodiyot muammolari islohotlarning bugungi bosqichida mahalliy budjetlar oldiga yangi muammolarni qo'ymoqda, xususan:

- budjet mablag'larining hududlar bo'yicha taqsimotida xarajatlar ko'lamining kengligi hamda ularni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'larning cheklanganligi oqibatida budjet resurslariga bo'lgan ehtiyojning to'liq qondira olmaslik muammosi;

- budjet tizimida mahalliy budjetlarning mustaqilligi va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlari haqida tortishuvlarning mavjudligi;

- rivojlangan mamlakatlar budjet amaliyotida keng qo'llanilayotgan budjet resurslarini budjet bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash jarayonidagi tegishli mezonlarga amal qilish muammosi.

Bugungi kunda respublika va mahalliy budjetlar o'rtasidagi xarajat majburiyatlaridagi cheklovlar egiluvchan, biroq bir tizimga solinmagan ko'rinishga egadir. O'zbekiston Respublikasining "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonuni bilan respublika va mahalliy budjetlardan tarmoqlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishning cheklovlari va qonuniy mustahkamlanishi amalga oshirilgan. Biroq, qonunda keltirilgan cheklovlar respublika va mahalliy budjetlar xarajatlarini moliyalashtirish jarayonidagi ma'lum nomutanosibliklarni bartaraf qilmaydi.

Moliya Vazirligi va hududiy moliya boshqarmalari o'rtasidagi kelishmovchiliklar mahalliy budjetlar xarajatlarini prognozlashtirish bosqichidayoq yuzaga keladi. Mahalliy budjetlar xarajatlarini prognozlashtirishda Moliya Vazirligi mavjud imkoniyatlardan, ya'ni prognoz qilinayotgan daromadlardan kelib chiqadi. Hududlar darajasida esa xarajatlarni taxminlashtirish real mavjud bo'lgan ehtiyojlardan kelib chiqib amalga oshiriladi, bu esa mos ravishda, Moliya Vazirligi prognozlarini oshirib yuboradi. Markaz va hududlar moliyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish jarayonida mahalliy budjetlar xarajatlarining optimal prognozi aniqlanadiki, ushbu miqdor daromad

bazasidan kelib chiqadi. Bunday yondoshuv "Budjet tizimi to'g'risida"gi qonun bilan ham mustahkamlab qo'yilgan, vaholanki, mazkur qonunga muvofiq, mahalliy budjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi. Shunga mos ravishda, mahalliy budjetlarga ajratiladigan subvensiyalarni ham hisobga olgan holda, xarajatlarning daromadlardan ortib ketmasligi amaliyoti talab etiladi.

Mahalliy budjetlarni prognozlashtirishdagi va markaziy hamda mahalliy organlar tomonidan yagona yondashuvni qo'llashdagi nomutanosibliklarni mahalliy budjetlar xarajatlarini qat'iy me'yorlar asosida prognoz qilish bilan bartaraf qilish mumkin.

Biroq, budjet xarajatlarini yagona davlat (ijtimoiy jihatdan maqbul va ilmiy asoslangan) me'yori asosida mahalliy budjetning real daromadlari bilan bog'lanmagan holda rejalashtirish hozirgi vaqtda budjetning xarajatlari qismining daromadlar qismidan sezilarli darajada ortib ketishiga olib kelmoqda. Shu boisdan ta'kidlash lozimki, bu kabi yagona davlat me'yori asosida hozirgi sharoitda qo'llash xarajat moddalarini bo'yicha mahalliy budjetlar xarajatlarini ongli tarzda qisqartirishni anglatadi va bu holat xarajat guruhlaridagi u yoki bu moddalar bo'yicha moliyalashtirish darajasining asoslanmagan tarzda keskin tebranishlariga olib keladi. Ushbu amaliyot natijasida mahalliy moliya organlari va Moliya Vazirligi o'rtasida mahalliy budjetlar xarajatlarini prognozlash yuzasidan kelishmovchilik va nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Bundan tashqari, budjet xarajatlarining ijtimoiy maqbul va asoslangan davlat me'yori ma'lum ijtimoiy standartlar (iste'mol budjeti, yashash minimumi va h.k.) ning qonuniy tarzda tasdiqlanishini talab etadiki, bu holat yaqin kelajakda yagona davlat me'yori asosida qo'llashning imkoniyatlari cheklanganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Aksariyat ijtimoiy xarajatlarning mahalliy budjetlarga ular daromad bazasini tegishli tarzda oshirmay turib birlashtirilishi budjet ssudalariga bo'lgan ehtiyojning o'sishiga olib keladiki, bu holat ularni o'z vaqtida qaytarilishidagi muammoning mavjudligi va keskinlashuvi tufayli amaliy jihatdan nomaqbuldir.

Mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirish siyosatida hamon “daromad bazasidagi etishmovchilik va mablag'larga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi” qonuniyati saqlanib qolmoqda. Shu boisdan xarajat vakolatlarining taqsimlanishi va umuman mahalliy budjetlarni prognozlashda solikli va soliqsiz daromadlar tizimi bo'yicha aniq tadbirlar belgilanishi lozim. Soliq daromadlari ahamiyatli, belgilovchi omil bo'lsa-da, mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirish yoki ularning balansliligini ta'minlash soliqsiz daromadlar tizimiga ham ehtiyoj sezmoqda. Har qanday sharoitda davlatning respublika budjetidan mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirishga qaratilgan tadbirlarida hozirgi budjet amaliyotidagi budjetlararo transfyertlarning samarali va adresli faoliyatini ta'minlash ayniqsa muhimdir.

Shu munosabat bilan respublika budjetidan ajratiladigan transfyertlar (moliyaviy tenglashtirishga qaratilgan davlat tadbirlari) miqdorini aniqlash uslubiyotini ko'rib chiqish zaruriyati tug'iladi, yana shu narsa xususiyatliki, budjet tizimini tartibga solish maqsadida mahalliy budjetlarni moliyaviy tenglashtirishga qaratilgan davlat tadbirlarining miqdorini aniqlash uslubiyoti barcha talablarga to'liq javob bermaydi va takomillashtirishga muhtojdir.

Byudjellararo tartibga solishning mavjud amaliyotidan kelib chiqqan holda birinchi bosqichda hududlarga moliyaviy yordam taqdim etishning shakllangan tizimini tubdan o'zgartirishning iloji yo'q va maqsadga muvofiq ham emas. Birinchi bosqichda (1-2 yil) yo'nalishlar (sohalar) bo'yicha byudjet harajatlarning normativlarini, mahalliy byudjetlarga tartibga soluvchi soliqlar ajratmalarining yagona barqaror normativlari asosida hududlarga moliyaviy yordamni taqdim etish muayyan maqsadlarni (harajatlarni) moliyalashtirishga ajratiladigan subventsiyalar ko'rinishida amalga oshirilishi lozim. Bu vositalar yordamida birinchi bosqichda moliyaviy yordamni aniqlash va taqdim etish uchun yanada asoslangan yondoshuvlarga zamin yaratib byerish, hududlardagi boqimandachilik kayfiyatlarini bartaraf etish, mahalliy hokimiyat organlari va Moliya vazirligi o'rtasidagi byudjet ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish amaliyotini qisqartirish va hududlarni vertikal miqyosda tekislash mexanizmlarini joriy etish nazarda tutiladi.

Hududlarga moliyaviy yordam taqdim etish mexanizmini qaytadan isloh qilishning ikkinchi bosqichi o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

Aholi jon boshiga daromadlarni ularni tekislash maqsadida korrektirovka qilish uchun ishlatiladigan byudjet harajatlarining indeksini hisob-kitob qilish;

Soliq potentsialini baholash usulubini ishlab chiqish va uni viloyatlar bo'yicha hisoblab chiqish;

Tekislash maqsadlaridan kelib chiqqan holda transfyertlarni aniqlash va tanlab olish (mahalliy byudjetlarning muvozanatliligi, aholi jon boshiga daromadlarni tekislash, demografik va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda harajatlarni tekislash));

- Hududlarni qo'llab-quvvatlash fondini tashkil etish. Ular orqali tekislash amalga oshiriladi (fondni yaratish manbalarini aniqlash);

- Yagona uslubiyotni (formulani) asoslab byerish va uning asosida transfyertlar hajmini aniqlash.

3.3. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish orqali mahalliy byudjetlar daromad bazasini yanada mustakamlash yo'llari.

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

Yuqoridagi boblarimizda amalga oshirilgan tahlillardan ma'lum bo'ldiki, mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha barcha chora tadbirlarni 2 asosiy yo'nalishdagi omillarga ajratishimiz mumkin. Birinchisi, mahalliy byudjetlar daromadlarining moddiy asosini tashkil etuvchi umumiy iqtisodiy omillar. Ikkinchisi, hududda jamlangan daromadlarni turli

darajadagi byudjetlar o'rtasid taqsimlash yoki daromadlar samaradorligini oshirish bilan boliq chora tadbirlarni o'z ichiga oluvchi moliyaviy omillrni ko'rib o'tishimiz mumkin.

Hozirgi kunda espubikamix hukumati tomonidan olib borilayotgan islohotlarda hududlarni kompleks rivojantirish, hududlar iqtisodiy salohiyatidan oqilona foyj dalanish masaalari dolzarb ahamiyat kasb etuvchi masalalardan biri hisoblanadi. O'z navbatida hududiy iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish parallel ravishda mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlashning bosh omili hisoblanadi.

HUDUDLAR IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI MAHALLIY BUDJETLAR DAROMAD BAZASINI MUSTAHKAMLASH YOLLARI

Umumiqtisodiy omillar

1. Hudud iqtisodiy salohiyatini oshirish;
2. Hududlarda kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish.
3. Istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalari ga sotish orqali sog'lomlashtirish
4. Xizmat ko'rsatish va servis tizimini rivojlantirish..
5. Mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish

Moliyaviy omillar

1. Soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish;
2. Hudud soliq salohiyatini to'g'ri baholash;
3. Soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan to'lanishini joylarga to'lash tartibini takomillashtirish

3.2-rasm. Mahalliy byudjetlar daromab bazasini mustahkamlash yo'llari bo'icha chora tadbirlar

Hudud iqtisodiy salohiyatini oshirish va mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish. Iqtisodiy o'sish mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi hamda ularning aholi farovonligi va iqtisodiy rivojlanish darajasidagi mavjud farqlanishini yumshatishi kerak. Bu maqsadlarda, hukumat mintaqalarda qazib olish va qayta ishlash sanoati, mahalliy minyeral va qishloq xo'jalik xomashyosi, shuningdek, mavjud foydalanilmayotgan resurslar va tabiiy-iqlim

sharoitlaridan maksimal foydalangan xizmatlarni rivojlantirishni ko'zda tutuvchi hududlarni kompleksli rivojlantirish Dasturlarini ishlab chiqadi va joylarda davlat hokimlik organlari bilan birgalikda bu dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi. Ko'rsatilgan dasturlar yangi ish o'rinlarini yaratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hududiy dasturlari bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Hududlarni kompleksli rivojlantirish dasturlari. Mintaqalardagi aholining turmush darajasi va daromadlar ko'rsatkichlarida tengsizlikni kamaytirishning eng muhim strategik vazifasi, aholi farovonligini oshirish, mintaqalarni kompleksli rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Mamlakat va har bir mintaqaning mavjud salohiyatidan maksimal darajada foydalanish asosida, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, odatda, yetakchi mintaqalarning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi mintaqalar mablag'larini sun'iy qayta taqsimlashni qiyoslab o'tishdan tashqari, aksincha, har bir mintaqaning mavjud salohiyatini ishga tushirishga ham imkon beradi.

Bunda har bir mintaqaga uchun mavjud salohiyatga asoslangan, tarmoq dasturlari va mamlakat iqtisodiy rivojlanishining umumiy loyihasi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos rivojlanish loyihasi belgilanadi:

a) boy minyeral-xom ashyo resurslariga ega mintaqalar uchun, dasturda eng yangi texnologiyalarni qo'llagan holda, ularni ishlab chiqish va kompleksli qayta ishlash bo'yicha investitsiya loyihalari ko'zda tutiladi. Qazib olinayotgan xom ashyo resurslarini qayta ishlashni oshiruvchi o'zaro bog'liq texnologik ishlab chiqarishlarni yaratish ko'zda tutiladi. Bunday loyihalarni moliyalashtirish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, vazirliklar va idoralarning o'z mablag'lari, shuningdek, Rekonstruktsiya va taraqqiyot fondi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi;

b) ilmiy-texnik salohiyati yuqori mintaqalar (Toshkent shahri, ayrim viloyat markazlari) uchun birinchi navbatda, yuqori texnologiyali ko'p ilm talab qiladigan ishlab chiqarishlarning investitsiya loyihalari tashabbusi bilan chiqish, mashinasozlik, elektrotexnika va radiotexnika sanoatini rivojlantirish, shuningdek

parallel ravishda mintaqalarda ularga texnik xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish ko'zda tutiladi (butlovchi qismlar ishlab chiqarish, ta'mirlash va servis ishlarini mahalliyashtirish). Bu loyihalarni moliyalashtirish asosan investorlar va korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan, shuningdek, tijorat banklarining kreditlari hisobidan amalga oshiriladi;

v) qulay salohiyatga ega mintaqalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'zda tutiladi. Bir vaqtning o'zida bu mintaqalarda etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri integratsiya shaklida bir-biri bilan bog'liq zanjirlar yaratiladi (to'qimachilik tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarishi, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va hokazolar). Bu mintaqalarning ichki resurslari va davlat budjeti mablag'lari hisobidan, melioratsiya va suv xo'jaligini moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan investitsiyalar hisobidan amalga oshiriladi.

Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro'y beradi.

Umumiy sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o'zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo'ladi, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarining rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to'liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko'rsatkich ulushi pasayishi sodir bo'ladi.

Hududlarning mashinasozlik va metallga ishlov berish, yengil sanoat, ayniqsa, trikotaj, tikuvchilik buyumlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sohalarida kichik biznesning o'rni va ulushi yetarli darajada emas. Vaholanki barcha sohada ishlab chiqarish faolligi tenglashsa, ijobiy natijalarga yerishamiz.

Hududlarda kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish. Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin.

Bizning hisoblarimizga ko'ra, 2015 yilga borib, respublika bo'yicha kichik biznesning ishlab chiqarilgan YaIM hajmidagi ulushini 61,1 foizga etkazish, kichik tadbirkorlik korxonalarining yillik mahsulot ishlab chiqarishining o'sishi 2,5 foizdan kam bo'lmagan holatdagina amalga oshadi. Buning uchun hududlardagi kichik tadbirkorlik korxonalarning respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan YaIM dagi ulushi istiqbolda qo'yidagi holatda o'sib borishiga erishish zarur (3.1-jadval).

3.1-jadval

Respublika YaIMda hududlardagi kichik korxonalarning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushining istiqbolda o'sib borishi (foiz hisobida)⁴⁸

Respublika hududlari	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi
O'zbekiston Respublikasi	31,0	38,2	52,1	66,1	213,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	26,9	48,9	57,9	66,9	248,7
viloyatlar					
Andijon	32,9	38,7	49,9	61,1	185,7
Buxoro	33,0	44,4	51,1	57,8	175,2
Jizzax	37,1	64,4	73,0	79,8	215,1
Qashqadaryo	25,8	38,4	45,8	58,4	226,4
Navoi	21,5	20,9	33,5	46,1	214,4
Namangan	33,4	51,4	75,4	81,4	243,7
Samarqand	44,3	54,5	68,3	78,9	178,1
Surxondaryo	39,1	45,9	64,8	81,7	208,9
Sirdaryo	38,9	58,8	72,5	80,6	207,2
Toshkent	34,0	36,3	45,6	54,9	161,5
Farg'ona	32,0	43,9	64,7	82,3	257,2
Xorazm	34,2	54,2	78,3	81,9	239,5
Toshkent sh.	41,5	54,3	70,2	79,1	190,6

Albatta bu ko'rsatkich rivojlangan davlatlarda, masalan AQSh da 75-82 foiz, Yaponiyada 81 foizni, Italiyada 74 foizni tashkil etadi. Respublikamiz

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012 y. 230-b.

kichik biznesning bunday ko'rsatkichlarga erishishi tadbirkorlik faolligi orqali amalga oshadi (3.2-jadval).

3.2-jadval

Istiqbolda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonalari tomonidan mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi (million so'm hisobida)⁴⁹

Hududlar	2000 y	2005 y	2010 y	2015 y	2015 yilda 2000 yilga nisbatan o'sishi foiz
O'zbekiston Respublikasi	892573,0	956838,2	1089938,7	1223039,2	137,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	18786,6	22919,6	24982,3	27045	143,9
viloyatlar					
Andijon	70178,8	74249,1	82564,9	90880,7	129,5
Buxoro	46619,4	51934,0	55413,5	58893,1	126,3
Jizzax	31281,6	39821,3	43245,9	46670,5	149,2
Qashqadaryo	61485,8	69233,0	74356,2	79479,4	129,3
Namangan	50919,4	60084,8	74505,1	88925,4	174,6
Samarqand	67851,2	74772,0	85090,5	95409,0	140,6
Surxondaryo	82241,4	87833,5	104434,0	121034,5	147,2
Sirdaryo	34155,4	40952,3	46562,7	52173,1	152,8
Toshkent	110782,4	112665,7	123143,6	133621,5	120,6
Farg'ona	104838,6	117314,3	141715,6	166116,9	158,5
Xorazm	36708,7	44050,4	54666,5	65282,6	177,8
Toshkent sh.	219770,8	247901,4	287813,5	327426,6	148,9
Navoiy	24940,4	25065,1	29100,5	33135,9	132,9

Istiqbolda kutiladigan natijalar asosan kichik tadbirkorlikning faol rivojlanishi evaziga ro'y beradi. Bu esa ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot miqdorining o'sish dinamikasini ta'minlaydi.

Hududlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish hajmining istiqbolda o'sib borish dinamikasini korxonalar miqdorining o'sib borish holati bo'yicha tahlil

⁴⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "O'qituvchi" NMIU, 2012 y. 231-b.

etsak, bu holat qo'shimcha yangi kichik korxonalarning tashkil etilishi hisobiga amalga oshadi.

Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan hududlarda yalpi hududiy mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi ta'minlanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan mamlakatimizda o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish vazifasini bevosita hal qilishga yerishamiz.

Istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalariga sotish orqali sog'lomlashtirish. Ma'lumki, hududlarda past rentabelli, iqtisodiy nochor korxonalar mavjd bo'lib bunday korxonalarni sog'lomlashtirish va ularni to'liq quvvatda ishlashini ta'minlash hudud iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, bunday korxonalarni banklar balansiga o'tkazish yoki ularni moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshirish hududlar iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash pirovardida mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlashga ta'sir etadi.

Xizmat ko'rsatish va servis tizimini rivojlantirish. Bizga ma'lumki, 2013-2014 yillarda mamlakatda yaratilgan YaIM tarkibida xizmat ko'rsatish va servis sohasida yaratilayotgan YaIM sezilarli salmoqni tashkil qilib, keskin o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Tahlillarga asoslangan holda ta'kidlash joizki, aksariyat kuchsiz donor hududlarimizda aynan xizmat ko'rsatish va servis tizimining rivojlanmaganligi bilan bog'liq muammolar ular mahalliy byudjetlarining daromad bazasiga salbiy ta'sir etuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha hududlarda xizmat ko'rsatish va servis tizimini barqaror rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

O'ylaymizki, bu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hududiy iqtisodiyotni mustahkamlash, mahalliy moliya resurslarini shakllantirish va samarali boshqarish, mahalliy budjetlar samarali ijrosini ta'minlash, mahalliy budjetlar

moliyaviy mnbalarini mustahkamlash vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish imkonini yaratadi.

Hozirgi kunda soliq tizimi oldidagi asosiy muammolardan biri mavjud soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va boqimanda qarzdorlikni izchil kamaytirish hisoblanadi.

Aynan boqimanda qarzdorlikninig vujudga kelishi yoki soliqlarning yig'iluvchanlik darajasining pastligi aksariyat holatlarda mahalliy byudjetlarning yuqori byudjetlardan ssudalar olishiga ehtiyojni vujudga keltirmoqda. Shuning uchun davlat soliq xizmati organlari bilan mahalliy davlat xokimiyati organlarining xamkorlikdagi chor tadbirlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillarda ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida Asaka tumanida byudjetga qo'shimcha daromadlar undirish bo'yicha natijalarga erishildi.

3.3-jadval

Andijon viloyatining Asaka tumanida daromadlar bazasini oshirish borasida olib borilgan ishlar natijasi bo'yicha ma'lumot⁵⁰

Soliqlar turi	2011 yil tushum (mln.so'm)	2012 yil tushum (mln.so'm)	2012 yil tushumning 2011 yilga nisbatan o'sish foizi	2013 yil 9 oylik tushum (mln.so'm)	2013 yil 9 oylik tushumning 2012 yilga nisbatan o'sish foizi
Jismoniy shaxslar er solig'i	1 032	2 265	219 %	2 734	121 %
Jismoniy shaxslar mol mulk solig'i	1 114	2 630	236 %	2 621	100 %

Jadval ma'lemotlaridan ko'rinib turibdiki, amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida birgina, 2012 yilda jismoniy shaxslar er solig'i bo'yicha tushum 219%ga, mol-mulk solig'i bo'yicha tushum esa 236%ga o'sgan.

⁵⁰ Asaka tumani moliya bo'limi ma'lumotlari

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash maqsadida tartibga soluvchi daromadlar tarkibi va me'yorlari bo'yicha ushbu yondoshuvlar tahlili asosida Uzbekiston Respublikasi budjet amaliyotida quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz:

- tartibga soluvchi daromadlar taqsimotida hududlarning iqtisodiy salohiyati va mahalliy budjetlar bo'g'ini zimmasidagi budjet majburiyatlarining ortib borayotganligi omili albatta hisobga olinmog'i kerak;

- tartibga soluvchi daromadlar tarkibida kat'iy me'yor sifatida va 100 %li miqdorda mahalliy budjetlar zimmasida koldirilishi rejalashtirilayotgan soliqlar bo'yicha tadbir ularni biriktirilgan daromad tarkibida rejalashtirish uchun asos bo'lmasligi kerak, chunki bunda umumdavlat soliqlarining moliyaviy tabiati va ularning doimiy xususiyatga ega emasligi yo'l ko'ymaydi;

- tartibga soluvchi daromadlar me'yorlarini ko'llashda mahalliy budjetlarni rag'batlantirish vositasidagi iqtisodiy manfaatdorlik tamoyili ham to'lik hisobga olinishi lozim.

Tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning 60 % miqdorida umumiy me'yorlarida rag'batlantiruvchi samarani kuchaytirish maqsadida, rejadani ortiq tushumlar uchun ham mahalliy budjetlarning qo'shimcha manfaatdorligini hisobga oluvchi me'yorlarni belgilash kerak bo'ladi.

Yuqorida bayon o'linganlarni umumlashtirilgan holda tartibga soluvchi soliqlarni taqsimlash bo'yicha taklif o'lingan mexanizmning maqsadga muvofiq'ligi va samaradorligini tasdiqlovchi quyidagi dalillarni keltirish mumkin.

Mahalliy budjetlarga tartibga soluvchi soliqlardan ajratmalarning yagona me'yorlari quyidagilarni ta'minlaydi:

- budjetning mukammalligini;
- mahalliy budjetlarning daromad bazasini shakllantirish-ning barqarorligini;
- mahalliy budjetlarni istiqbollarini belgilashning yaxshilanishini;
- soliq tushumlarini ko'paytirish, budjet boqimandalarini qisqartirish va mintaqa hududida soliq salohiyatini kengaytirishga manfaatdorlik;

- budjet parametrlarini ishlab chiqishda kelishish amaliyotini qisqartirish.

Ma'lum bir davrga tasdiqlangan yagona me'yor asosida rejadan ortiq soliq tushumlarini taqsimlash quyidagilarga imkon beradi:

- rejalashtirilgandan ortiq soliqlarni yig'ishga qiziqishni oshirishga;
- respublika va mahalliy budjetlarni daromad bazasini mustahkamlashga va mos ravishda subvensiyalar hajmini qisqartirishga.

Yuqori iqtisodiy va soliq salohiyatiga ega bo'lgan viloyatlarning budjetdagi ortiq cha mablag'larini 10:90 nisbatda taqsimlash quyidagilarga yo'naltirilgan:

- daromadlari xarajatlaridan ortiq bo'lgan viloyatlar hududida soliq solinadigan bazani kengaytirish va ko'paytirishga, soliqlarni yig'ishga bo'lgan manfaatdorlikni saqlab qolishga;

- balanslashtirilgan budjetga yoki soliq yig'imlarini oshirishda unchalik katta bo'lmagan taqchilikka ega bo'lgan viloyatlarda rag'batlantiruvchi sharoitlarni tashkil qilishga.

Mahalliy hudud iqtisodiyotining qaror topishi va uning moliyaviy mustaqillikka ega bo'lishi uchun budjetni mustaqil shakllantirish huquqigina emas, balki uni boshqarish huquqi ham zarur.

Mahalliy hudud iqtisodiyotini soliq mexanizmi asosida tartibga solish bo'yicha:

- birinchidan, hududiy o'z-o'zini moliyaviy boshqarishda soliqlarni me'yoriy tartibga solish;
- ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot asoslarini shakllantirishda soliqlar iqtisodiy kategoriya sifatida qaralishi;
- uchinchidan, mustaqil hududiy iqtisodiyotda iqtisodiy islohotlar tizimi;
- to'rtinchidan, hududiy iqtisodiyotda mahalliy hokimiyat organlari mas'uliyati muhim omil sanaladi.

Respublika budjeti orqali mablag'larni qayta taqsimlanishining amaldagi tartibi, aholi jon boshi sonini hisobga olib, ushbu daromadning tabakalanishi nima sababli yuzaga kelganligidan qat'iy nazar mahalliy budjetlar daromadlarini tenglashtirishga qaratilgandir. Ammo, respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida

solliqlarni taqsimlash mexanizmidagi solliqlarni hududlararo eksportini hisobga olmaslik, soliq va byudjet tizimlarini amal qilish samaradorligini pasaytiradi, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona iqtisodiy muhitni shakllantirishga to'sqinlik qiladi.

Mahalliy hokimiyat organlarini soliq yig'irlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va subvensiya hamda boshqa moliyaviy yordam turlarini qisqartirish maqsadida, bizning nazarimizda, rejadan ortiqcha tushgan soliq summalarini taqsimlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak. Bunda rejadan ortiqcha soliq tushumlarini mahalliy byudjetlarda qoldirish me'yorlarini ishlab chiqish va qonuniy tasdiqlash kerak. Hozirgi vaqtda rejadan ortiqcha tushumlar respublika va mahalliy byudjetlarning joriy ehtiyojlaridan kelib chikib, umuman tizimlanmagan usulda taqsimlanmokda. Yagona barqaror me'yorlar joriy etilganda subvensiyalarning oshishi keyinchalik soliq tushumlarining ham oshishi bilan koplanishi mumkin. Bu omil ma'lum vaqt tafovuti bilan amalga oshadi, chunki soliq tushumlarini oshirish soliq tushumlarini ma'lum bir vaqt (1-2 yil) o'tgandan keyin ko'paytiradi.

Amalga oshiriladigan chora tadbirlar natijasida byudjetga tushumlarning prognoz ko'rsatkichlari quyidagi jadvalda berilgan.

3.4-jadval

Daromadlar bazasini mustahkamlash, byudjetga qo'shimcha daromadlar manbalarini yaratish bo'yicha ma'lumot

№	Yo'nalishlar bo'yicha	2013-2018 yillarda	
		Korxonalar soni	Qo'shimcha soliq bazasi (mln.so'm)
1	Sanoat ishlab chiqarish sohasida yangi tashkil etilgan sub'ektlar bo'yicha	8 522	15 857, 7
2	Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar bo'yicha	28 523	2 205 ,1
3	Yangi tashkil etilgan xizmat ko'rsatish, servis korxonalar bo'yicha	42 146	1 820,7

4	Mavjud korxonalarni sog'lomlashtirish, modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish bo'yicha	13 856	3 197,0
5	Istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalariга sotish orqali sog'lomlashtirish hisobiga	1 341	613,8
6	Soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan to'lanishini joylarga to'lash tartibi bo'yicha	3 387	1 390,9
7	Soliq to'lovlari bo'yicha berilgan imtiyozlarni muddati tugashi hisobiga	25 976	1 185,2
8	Soliqlarni yig'uvchanligini oshirish bo'yicha	1 804	1 162,0
	Jami	125 555	27 432,4

Mahalliy byudjetlar daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha yuqoridagi chora-tadbirlar natijasida prognozlar bo'yicha 2018 yilgacha korxonalar soni 125555 taga etib, byudjetga qo'shimcha tushumlar soni 27432,4 mln. so'mga o'sishi taxmin qilinmoqda. Bu o'z navbatida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlanishiga va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlanishi uchun mustahkam zamin yaratlishiga olib keladi.

III bob bo'yicha hulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliqlarning respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga har yili qayta taqsimlanadigan me'yorlari ilmiy jihatdan asoslanmagan holda faqatgina amaldagi ehtiyojlardan kelib chiqib belgilanmoqda. Bu esa mahalliy hukumatda mahalliy o'zini o'zi ta'minlash g'oyalarini qaror topishini rag'batlantirmagan holda, o'z hududlarining iqtisodiy va soliq salohiyatini oshirishga bo'lgan xarakatlarini susaytirmoqda. Shuningdek, bugungi kunda mahalliy byudjetlarni shakllantirish mexanizmi tub islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Bizningcha bu yo'nalishda qo'yidagi chora tadbirlarni amalga oshirish lozim. Birinchidan, mahalliy hukumat organlariga keng darajadagi byudjet vakolatlarini, jumladan, mahalliy hukumat organlariga o'zlarining xududida soliqlarni undirish hamda o'z byudjetini tuzishda moliyaviy mustaqillik

byerishdir. Bunga amaliyotda g'aznachilik xizmatlarini amalga oshirish orqali yerishish mumkin.

Ikkinchidan, mahalliy hukumat organlariga soliq va byudjet mustaqilligini byerish bilan bir qatorda, o'zlariga yuklatilgan mas'uliyatni his etishlari uchun, ularning javobgarligini oshirishdir.

Uchinchidan, turli darajadagi xukumat organlarining byudjet ehtiyojlarini baholashning me'yorlar usuliga o'tib, byudjet xarajatlari va transfyertlarini yagona me'yorlar asosida amalga oshirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida mahalliy budget daromadlarini mustahkamlash bo'yicha quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bugungi kunda davlat byudjetining salmoqli qismini soliqlar tashkil qilish bizga ma'lum. Shu bilan birga soliqlarni byudjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi umumdavlat va mahalliy soliq va yig'implarga taqsimlangani mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllanishida mahalliy soliqlarning salmog'i kamligi ularga biriktirilgan daromadlar bilan balanslashtiriladi.

2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqqa tortish tizimi hamda soliq siyosatining samarali ishlashi iqtisodiy siyosatning nechog'lik mukammal yuritilishiga bevosita bog'liq bo'lib, iqtisodiyotning real sektorlarini rivojlantirishga tgrtki bo'lib xizmat qilishi mumkin. Aytish joizki, bugungi kunda bu borada qator chora -tadbirlar amalga oshirildi. Amalga oshirilgan tadbirlarning tub negizini esa qo'yidagilar tashkil etdi:

– soliqqa tortishni tashkil etishda soliqlarning fiskallik funktsiyasiga asosiy e'tibor qaratish;

– soliqqa tortish tizimini imkon darajasida soddalashtirish;

– resurs soliqlarini byudjetdagi ahamiyatini oshirib borish;

– ishlab chiqarishni aynan soliqlar vositasi orqali rag'batlantirish;

– davlat byudjetida egri soliqlar ulushini ko'tarish hamda ular vositasida mamlakatda iste'mol darajasini boshqarish siyosatini amalga oshirish;

– byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar miqdorini imkon qadar oshirish;

– iqtisodiyotda proteksionizm siyosatini amalga oshirishda soliqlar dastagidan unumli foydalanishdir. Soliqqa tortish tizimini yaratish borasidagi dastlabki qadam soliqlarning umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va yig'implarga bo'linishi bilan bog'liqdir.

3. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida birlashtirilgan daromadlarining salmog'i past darajada bo'lmoqda. Daromadlari tarkibida umumdavlat soliqlaridan me'yoriy ajratmalar, subvensiyalar shaklidagi daromadlarning salmog'i yuqori bo'lmoqda. Bu holat mahalliy byudjetlar ijrosining yuqori byudjetlardan moliyaviy yordam shaklida kelib tushuvchi daromadlarga kuchli bog'liqligini ko'rsatib beradi.

4. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibidagi subvensiyalarni yuqori bo'lishi ularning moliyaviy barqarorligini pasaytirish bilan birga, boqimandalik kayfiyatini vujudga keltirmoqda.

5. Mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash imkoniyatlari birinchi navbatda hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish hisobiga byudjet salohiyatini yuksaltirish va daromadlarni byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida qayta taqsimlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

6. Mahalliy davlat xokimiyati organlarining soliqlarni yig'iluvchanlik darajasini oshirish va boqimanda qarzlarni kamaytirish bo'yicha aniq chora tadbirlar rejasini ishlab chiqishi lozim.

Amalga oshirilgan nazariy tadqiqotlar va amaliy tahlillar natijasida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi taklif va amaliy tavsiyalar tizimi ishlab chiqildi:

1. Mahalliy byudjet daromadlarini tartibga solish amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, haligacha eski usuldan foydalanib kelinmoqda. Ya'ni qat'iy soliqlar avval davlat byudjetiga, undirilib, so'ngra uning ma'lum bir foizi (har yili qayta ko'rib chiqilgan holda) mahalliy byudjetlar daromadlarini moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda. Bizningcha, umumdavlat soliqlaridan ajratmalar amalga oshirilayotgan davrda belgilangan foizlarga kamida 5 yil davomida o'zgartirish kiritilmasligi lozim. Bundan tashqari umumdavlat soliqlaridan tushadigan tushumning ulushi bu soliqlardan ajratiladigan foiz miqdori byudjet daromadlarini 1 \ 3 qismidan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

Shundagina mahalliy hokimiyatlarning iqtisodiy manfaatdorligi oshib, ularning byudjet daromadlari mustahkamlanishi ta'minlanadi.

2. Tahlillar natijasida shunday xulosaga kelindiki, mahalliy byudjetlar daromad bazasini hududlar ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash orqali yuksaltirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, buning uchun quyidagi yo'nalishdagi islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- hudud iqtisodiy salohiyatini oshirish; Mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish;
- hududlarda kichik biznes faoliyatini yanada rivojlantirish;
- istiqbolsiz ishlab chiqarish korxonalarini yangi mulk egalariga sotish orqali sog'lomlashtirish;
- xizmat ko'rsatish va servis tizimini rivojlantirish;
- soliqlarning yig'iluvchanlik darajasini oshirish;
- hudud soliq salohiyatini to'g'ri baholash va uni oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- soliqlarni markazlashgan holda bosh korxonalar tomonidan to'lanishini joylarga to'lash tartibini takomillashtirish;

3. Mahalliy hokimiyat organlarini soliq yig'imlarini ko'paytirishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va subvensiya hamda boshqa moliyaviy yordam turlarini qisqartirish maqsadida, bizning nazarimizda, rejadan ortiqcha tushgan soliq summalarini taqsimlash mexanizmini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish kerak. Bunda rejadan ortiqcha soliq tushumlarini mahalliy budjetlarda qoldirish me'yorlarini ishlab chiqish va qonuniy tasdiqlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2010.-32 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 52-I-son, 2013 y.
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. -T.: Adolat. 2008 y.
4. O'zbekiston Respublikasi "Mulkchilik to'g'risida"gi qonuni. T.: Adolat. 2003 y.

II. O'zbekiston Respublikasi prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 2010 yil 24 dekabrda №1449- sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 27 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2012 yilga mo'ljallangan investitsion dasturi to'g'risida"gi 1668-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 28 dekabrda «O'zbekiston Respublikasining 2005 yilgi Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi 2004 yil 28 dekabrda 610-sonli qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 dekabrda PQ-1245-son Qarori.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

9. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Toshkent: Halq so'zi gazetasi. 2014 yil.
10. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. T.: O'zbekiston, 2012. – 36 b.
11. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi // Halq so'zi gazetasi –Toshkent, 2011 yil, 22 yanvar, №16(5183)
12. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish- taraqqiyotimizning muhim omilidir.-Halq so'zi, 2010 yil. 8 dekabr.
13. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi.-Xalq so'zi, 2010 yil, 13 noyabr
14. I.A.Karimov Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-Toshkent: O'zbekiston, 2010.-70 b.

15. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Xalq so’zi, 2009 yi. 14 fevral
16. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari – T.: O’zbekiston, 2009 yil, 56 bet.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Xalq so’zi, 2009 yil 14 fevral.
18. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minlash - barcha islohot va o’zgarishlarimizning bosh maqsadidir. -T. xalq so’zi, 2008 yil 9 fevral, № 28(4438).

IV. Asosiy adabiyotlar

19. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримовнинг 2011 йилнинг асосий якунлари ва 2012 йилда Ўзбекистонни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади” мавзусидаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув қўлланма.–Т.:Иқтисодиёт.- 2012.–233 б.
20. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган енг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” мавзусидаги маърузани ўрганиш бўйича Ўқув-услубий мажмуа.-Тошкент: Иқтисодиёт.- 2011.- 500 б.
21. Вахобов А.В., Маликов Т.С. Молия. Дарслик. -Тошкент: “Ношир”, 2012 й.- 712.
22. Вахобов А.В., Жамолов Х.Н. Согласование межбюджетных отношений. Уч.пос.- Т.: ТФИ, 2002. с. 46
23. Вахобов А., Жураев А. Налоги и налогообложение. //Учебник. – Т.: “Шарк”. 2009. стр. 391.
24. Вахобов А. ва б. Бюджет-солиқ сиёсати яхлитлиги. //Ўқув қўлланма. -Т.: Иқтисод-молия. 2005. 200 б.
25. Годин А.М., Максимова Н.С. Бюджетная система Российской Федерации. – М.: Дашков и К, 2006.– 583 с.
26. Завалишина И. Солиқлар: назария ва амалиёт. -Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси”. 2005. 19-бет.
27. Маликов Т. С., Ҳайдаров Н. Ҳ. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2008, 556 бет.
28. Маликов Т.С. Солиқлар ва солиққа тортишнинг долзарб масалалари. -Т.: Адлия. 2002. 280 б.
29. Маликов Т. С., Ҳайдаров Н. Ҳ. Молия: умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2008, 566 бет.

30. Жўраев А. Давлат бюджети даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. -Т.: “Фан”. 2004. 230 б.
31. Срожиддинова З.Х.Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими: Дарслик . – Тошкент: инфоСОМ.УЗ МЧЖ нашриёти, 2010. – 500 б.
32. Тухлиев Б.К., Курбонов Х.А., Бауетдинов М.Ж., Бижанова М.Б. Давлат бюджети: Ўқув қўлланма – Т.: ТДИУ, 2010. - 199 б.
33. Ваҳобов А., Жураев А. Солиқлар ва солиққа тортиш //Дарслик. – Т.: “Шарк”. 2009 й.- 315 б.
34. Поляк Г.Б. Бюджетная система Р.Ф. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. 550 с.

V. Qo’shimcha adabiyotlar

35. Поляк Г.Б. Финансы бюджетных организаций.- М.: "Вузовский учебник", 2006- 417 с.
36. Жўраев А., Сафаров Ғ. Солиқ назарияси. //Ўқув қўлланма. –Т.: “Иқтисод-молия”. 2005. 210 бет.
37. Ваҳобов А.В. Иқтисодиёт трансформацияси шароитида кўп укладлилиқ. Т.: Шарқ, 2003., 66-б.
38. Курбонов Х.А. Бюджетлараро муносабатларни такомиллаштириш. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати.-Т.: ЎзРБМА, 2010 й.

VI. Davriy nashrlar, statistik to’plamlar va hisobotlar

39. «O’zbekiston Iqtisodiyoti» statistik ma’lumotlar to’plami.-Т.: 2005 yil.
40. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yillik hisobotlari.

VII. Internet saytlari

41. <http://www.mf.uz> –O’zR Moliya vazirligi sayti.
42. <http://www.budgetrf.ru> - Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi sayti.